

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**Lakli miniatyurada ijodiy kompozitsiya bajarish texnika va texnologiyasi
(sovgabob buymlar misolida) mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Tasviriy san'at va muxandislik
grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
3-1TS-15 guruh talabasi Agamurotova
Kumushoy

ILMIY RAXBAR:
dots. S.S. Abdullayev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “_____” _____2019 yil

Buxoro- 2019 yil.

**Mavzu: Lakli miniatyurada ijodiy kompozitsiya bajarish texnika va
texnologiyasi (sovg'abob buyumlar misolida).**

Kirish.....2 bet

I. Bob. Miniatyura san'ati

1.1. Miniatyura rang tasvir san'atining bir turi sifatida4 bet

1.2. Miniatyura olamini aqs ettirishni alohida badiiy usuli.....7 bet

1.3. XX-XXI asr boshlarida O'zbekiston miniatyura san'ati13 bet

1.4. Shark miniatyurasida rasm va rang tasvir xususiyatlari21 bet

1.5. Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi.....23 bet

II. Bob. Lakli va terida miniatyura kompozitsiyasi

2.1. Lakli miniatyurada qo'llaniladigan asbob materiallar.....32 bet

2.2. Miniatyurada rang bilan ishlash texnologiyasi.....34 bet

III. Miniatyura san'atining izohli lugati "Tayanch" so'z va iboralar...36 bet

IV. Xulosa61 bet

V. Adabiyotlar ro'yxati.....62 bet

VI. Ilovalar.....63-80 bet

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Lakli miniatyurada ijodiy kompozitsiya bajarish texnika va texnologiyasi san'ati o'zining boy tarixiga ega. Ushbu san'atga oid bagishlangan adabiyotlar anchagina. Lekin mavjud kitoblarda miniatyura tarixining ma'lum bir jixati yoritilmagan yoki qisman tshuntirilgan. Shu sababli men ushbu muammoni ozgina bo'lsa ham bartaraf qilish maqsadida mazkur malakaviy ishni yaratish extiyoji tugildi.

Tadqiqot maqsadi va vazifasi:

Mazkur bitiruv malakaviy ishi lakli miniatyurada ijodiy kompozitsiya bajarish texnika va texnologiyasi (sovg'abob buyumlar misolida) bajarishga mo'ljallangan bo'lib maqsadi o'quvchilarga miniatyura fanini o'rgatish va amalda bajara bilish. Undan tashqari uning rivojlanishini va ahamiyatini o'rganib chiqish va qiyosiy tahlil qilishdir.

Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan:

Miniatyura san'ati

Miniatyura rang tasvir san'atining bir turi sifatida

Miniatyura olamini aqs ettirishni alohida badiiy usuli

XX-XXI asr boshlarida O'zbekiston miniatyura san'ati Shark miniatyurasida rasm va rang tasvir xususiyatlari

Lakli miniatyura kompozitsiyasi

Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi

Lakli miniatyurada qo'llaniladigan asbob materiallar

Miniatyurada rang bilan ishlash texnologiyasi

Miniatyura san'atining izohli lugati "Tayanch" so'z va iboralar

Tadqiqot ob'yekti:

Kasb-hunar kollejlarda, maktabda va maktabdan tashqari muassasalardagi “Miniatyura”dan to’garaklar tashkil qilib, bu san’atini yoshlarga o’rgatishda qo’llash.

Tadqiqot predmeti:

Amalda to’garaklarni tashkil etish shakllari va uslublarini ishlab chiqish va amalda qo’llash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Miniatyura Sharq rangtasviri fenomenini o’rganish. Lakli miniatyura san’atini amalda dekorativ moxiyatiga olib chiqich.

Miniatyura san’atining ildizlari uzoq asrlar qatoriga borib taqaladi. Sharq xalqlarining o’ziga xos rang tasviri bo’lgan miniatyura san’ati badiiy –estetik ma’naviy ma’rifiy tarixida o’zining munosib o’rniga egaligi bilan ajralib turadi. Asrimizning 80 yillari boshlaridan boshlab Respublikamizda bu san’at turiga e’tibor berila boshlandi. Ayniqsa mustaqillik, istiqlol sharofati bilan ushbu san’at turiga va bu san’at turini o’rganishga keng yo’l ochipdi. Buni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qator qarorlar misolida ko’rishimiz mumkin. Ushbu qarorlar. O’zbekiston hududida qadimdan shakllangan jahoniy shuhrat qozongan nafis maktablarning noyob an’alarini avaylab asrash, o’rganish, boyitib borish milliy tasviriy, miniatyura san’atimizning nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish, ulardan ongimizda Vatanga sadoqat gurur tuygularini shakllantirish yo’lida foydalanish, milliyligimizni, o’zligimizni anglashdek zarur ko’rsatmalar o’z aksini topgan.

I. Bob. Miniatyura san'ati

1.1. Miniatyura rang tasvir san'atining bir turi sifatida

Shark miniatyurasi san'ati uzining dastlabki kurinishini arab yarim oroli mamlakatlari, sosoniylar Eroni va Markaziy osiyodagi devoriy rasm va xaykaltaroshlik namunalari kurinishlaridan olingan. San'atshunoslar taxmin kiladilarki, Eronda (zasr) kadimiy kulyozmalar miniatyuralar bilan bezatilgan. U san'at turi sifatida islom davridan, ya'ni 7-asrdan boshlangan.

Miniatyura san'ati shark durdonasi sifatida urta asrlar adabiyoti bilan chambarchas boglik. Tadkikotchilarning aniklashlaricha, bu kadimiy san'at turi-buyukshark adabiyoti mazmunini tasvir vositasida yoritishning Erkin kurinishidir.

Fakat shu san'at vositalari yordamida urta asrlar asarlarning mazmuni va shakli uz ifodasini topgan. Bu asarlarni yaratganlar miniatyuradagi uziga xos badiiy vositalar yordamida shark adabiyotini chukur tushunganliklarini va uzlarining akliy tafakkurlari balandligini kursatganlar. Shark minatyurasi bilan tanishish, nafakat guzallik bilan tanishish, balki xozirgi Shark san'ati manbaalarini tushunib olish poydevor vazifasini utaydi.

Miniatyuraning uzi nima degan tabiiy savol tugiladi. Minatyura – lotincha «MINIATURE» suzidan olingan bulib, och kizil rang (kinovar) tushunchasini bildiradi. Franstuzcha «MINIATURE» suzi (17 asr) kichik ulchamli surat (portret) ni bildiradi. Barcha enstiklopedik lugatlarda, (mass.SES 1986-807) miniatyura (Kichik xajmli, nozik badiiy usuli asjralib turuvchi badiiy asar»dir deb yozilgan. Aslida Markaziy Osiyo mamlakatlarida miniatyura – «rang-e-rezi», «rang-e mizi», «rang-tasvir», rassom esa «musavvir», «nakkosh» vash u kabi fors, arab va turk suzlari bilan atalgan.

Shark minatyurasi uziga xos bulib, u garb tasviriy san'atidan fark kiladigan yozuv va ichki tuzilishiga ega.

Miniatyura uzining Erkin ifodasi, rasmning nozik va nafisligi, Erkin va mayinligi, garmonik muvozanati bilan ajralib turadi.

Biz bu erda istiklolli yorugliklarni kurmaymiz... Miniatyura uziga xos yuz yillar davomida shakllantirilgan ifodali tilga ega... shark ustasi istikbolni va unga

boglik, fazoviy bushliklarni rejalarini shartli ravishda tasvirlaydi. Xudi «Kush parvozi» balandligidan, bu esa kichik joyda kup figurali komatli kishilar konpozistiyasini joylashtirishni, Yana shu katorda binoning ichki va tashki eksterer va intererdagi arxitektura buzagini xam kursatadi, bu esa kichik kogoz yuzasida kata «Dunyoni» tasavvur kilishiga imkon yaratadi. Yana miniatyuraning dastgoxli kartinadan farki shundaki diqqat bilan karashga, kuzatishga, mushoxada kilishga muljallangan. Shu san'atning ba'zi tadjikoktchilari musulmon Sharki miniatyurasini garb davlatlariga xos san'atning real tasviri nukta nazaridan kurishga moyillik bildirmokdalar. Bu tubdan notugri va bir kator mutaxassis olimlar jumladan akademik G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, S.I.Galerkinava boshkalar ishonch bilan isbot kildilarki, san'atda realizm shakli tarixan uzgargan, shu bilan birga miniatyura san'atining dekorativligi uning obrazli poetik tili, uziga xos Shark miniatyurasining realistik, san'ati xisoblanadi va rangtasvirning nodir bir tarmogini tashkil etadi. Minatyura badiiy markazining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asrlar mobaynida: 11-12 asrlardan boshlanib, ba'zi mamlakatlarda esa 19 asrlargacha davom etgani ma'lum.

Shark miniatyurasi uz rivojlanishi davomida uzok murakkab, oddiy 12-15 asrlardagi shakllardan, 15-17 asrlardagi boy minatyura rangtasvirining san'ati an'alarigacha bulgan yulni bosib utdi. Shark minatyurasi san'ati tarixada kator maktablarni uzida birlashtiruvchi turt asriy davr mavjud:

1. Temuriylar davri Xuroson va Movarounnaxr (Xiro, Samarkand, tabriz, Sheroz maktablari)
2. Savafiylar davri – Eron (Sheroz, Tabriz, Mashxad, Isfaxon maktablari)
3. Shayboniylar davri – Markaziy Osiyo (Buxoro, Samarkand maktablari)
4. Boburiylar davri – Xindiston (Agra, Dexli maktablari)
5. XVII-XX asrlar Markaziy Osiyo miniatyura markazlari.

Boburnoma rasmlari. Albomni tuzuvchi va suzboshi muallifi prof. Xamid Sulaymon.

1.2. Miniatyura – olamni aks ettirishning alohida badiiy usuli.

XX – XXI asr boshidagi san'at turli yo'nalishlardagi, an'analar ijodiy izlanishlarning chinakam quramasidan iborat. O'zbekiston miniatyurachi rassomlarning go'daklik hamda sharq m'emoriyati, ayniqsa buyuk Nizomiy Ganjaviy (1141-1209), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1501) nazmi bilan muzayyan etigan shariyat olamini o'ziga xos tushunib yaratilgan asarlari tiniq, yorqin bo'yoqlar va yaxlit xarakterlar olamini, tabiat boyligi hamda jo'shqinligi ularning ijodini oziqlantiruvchi begubor ruhiyat bulogidir.

Tasvirlanayotgan obrazlar doirasi aytarli keng emas, bular-sozandalar, darvishlar, oshiq-moshiqlar, bazmi jamsiddagi mehmonlar, jangchilar, tuyakashlar. Biroq sinchkovlik bilan nazar tashlansa mussavirlar aslida Koinotni, Olloh taollo yaratgan, har bir daraxt, har bir chechak, giyoh siru-asrorini pinhon tutgan olamni tasvirlaganliklarni ko'rish mumkin. Ushbu koinot qo'ynidagi olam esa yanada murakkab, go'zal va ajib Inson dunyosidir. Asarlarning asosiy xususiyati halovatsizlikdan go'zallik olamida, Sharqning turfa garoyibotlari, milliy urf-odatlar, dunyoni diniy idrok etish, maishiy tavsilotlar, go'zal tiplar, liboslar, muhit bilan sugorilgan xos go'zallik olamiga hijrat qilish istagi golib keladigan mushohadakorlik va falsafiy o'y-fikirdir.

Musavvirlar ijodining asosiy qoidasi milliylikni tasvirlash, turmushni bilish, inson qalbining nafis musiqiy, bazan esa sirli tebranishni ko'rsatish va nihoyat, ulkan ijrochilik mahoratidir,

Shiddatli olamshumur larzalar davrida miniatyurani o'z asarlarida qadimning o'ziga xos bamaylixotirligini, o'tmish asarlarda ijod qilgan, shoshma-shosharlik ila asar yaratish bilan o'ziga behurmatlik ko'rsatmagan hamda olamni diqqat va e'zoz ila tasvirlagan san'atkor musavvirlarning qadr-qimmatini saqlab qolishgaham intilishmoqda. Ularning asarlaridan ona zaminga va xalqiga mehr qo'ygan san'atkorlarning lirik ovozi hamda ko'ngil hayqirigi yangrab turibdi.

Miniatyura ustalari ixtiyori bilan yangi kompozitsion “tuzilishga” dur kelib tasvirlangan personajlarni ushbu tasvirlar tushirilgan buyumning o’zi bilan qiyoslar ekanmiz, tasvirning grafik jihatdan mavhum ritmik “jonliligi” hamda mahalliy rangdor doglarning ohangdorligi bu asarlarning uslubiy yakun topganligini va erkinligini aniqroq xis etishimizga ko’maklashadi.

Ritm uslubning shaklni tarkib toptiruvchi elementni sifatida yaqqol namoyon bo’ladi. Predmetlar o’rtasidagi aloqa esa atrof muhitni “ruhiy” keskinlikka to’yintirib, ushbu predmetlarning idrokimizga tasirini yanada kuchaytiradi.

Insonni, uning didini, ehtiyojini, milliy o’ziga xosligini hisobga olish, uni estetik va ma’naviy tarbiyalash axloqiy kamol toptirish xalq hayotining ham moddiy, ham ma’naviy jihatini qamrab oluvchi badiiy tizim, dekorativ-amaliy san’at uchun bo’gan bo’lgan badiiy maktab, uslub tushunchasi bilan belgilanadi. Xalq didini, uning hayotiy qadriyatlar, go’zallik to’grisidagi tassavvurlarini ifodalovchi va mustahkamlovchi usullarning muzayyan tizimi ishlab chiqiladi. Bu esa musavvir shaxsiyati shakllanadigan ijtimoiy – badiiy asos muhimdir. Tarkibiy uslubga oid asarlardan usulning yuksak ahamiyati, ma’naviy mazmundorligi shundadir.

O’zbek miniatyuradagi rassomlarning asarlarni uslubiy birlikning rivojlangan, “shaxsiy” individual asosda shakllanishida misol bo’lib, ularning asoslariga xos emosional boylik va yaxliylik shu bilan izohlanadi. Bunda “soxta xalqchil san’at” nomi bilan uslublantirish deyarli uchramaydi, chunki chinakam xalqchil san’at saboqlari ustalarining hozirgi badiiy tafakkurida mujassamlashgan. Go’yoki zamonaviy sa’natning ilgari mavjud bo’lmagan yangi tipi yuzaga kelib, unda shaxs-xalqning emosional –psixologik tarzda asar tuzilishida murakkab uygun qurilishida bevosita ifodasini topadi. Bu tarzning muhim xususiyati shundaki, u turgun emas, aksincha kengayib boradi, yuksak uyishgan dinamik tuzilmaga aylanib, makonda “zuhr topadi”. Bu tuzilma go’yoki tafakkur jarayonini rassomning “tuygusini” ham qamrab oladi, natijada asar o’ziga xos mirik “manaviyat” kasb etadi.

O'zbekiston rassomlari namoyon etgan yuksak badiiy tafakkur madaniyatining ular butunning go'zalligi, qarama-qarshi elementlarning jo'shqin murakkab tuzilishi sifatida ochib beriladigan yangi sintez, yangi "ma'naviy"uygunlikni yaratishga qashgan hissa dastgoh san'ati uchun ham ahamiyatli ekamligini isbotlab o'tirishning hojati yoq. Dastgoh san'atida, tabiiyki bu masalalarning hammasi birmuncha bilvosita ko'ndalang bo'ladi. Bugun O'zbekiston xalq san'atini nazardan o'tkazar ekanman, an'anaviy xalq ijodiyoti tarmoqlarining tiklanishi va rivojlantirilishining ahamiyatga molik davrlarini eslatib o'tgim keladi.

Tabarruk "Usto" Respublika maxsus ijodiy ishlab chiqarish uyushmasining tuzilishi. (1978) xalq san'ati yuksalishi va etirof etilishining yangi bosqichi. Taniqli zargar, kulol, kandakor, gul bosuvchi, to'quvchi, kattachi, zardo'z ustalar, ayniqsa yogoch va ganch uymakor ustalar va badiiy bezak ustalari haqli ravishda etirof etiladilar.

Yurtimiz istiqloлга erishgandan so'ng madaniyatning barcha sohaları qatori zamonaviy o'zbek tasviriy san'atini milliy va umumbashariy qadriyatlar uygunligi asosida rivojlantirish masalariga xam davlatimiz tomonidan aloxida e'tibor beriladi. Bunda ayniqsa Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan olib borilgan qator tashkiliy-amaliy ishlar, jumladan O'zbekiston Badiiy akadimiyasi, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti, Tasviriy san'at galeriyasi kabi butunlay yangicha ma'no-mazmunidagi qurilmalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, Behzod nomidagi bog muzeyi, o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladgan " Sanat " badiiy jurnalining tashkil etilishi, buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning tavallud to'yi kenh miqiyosida o'tkazilishi, bu sohada faoliyat ko'rsatitotgan ijodiy tashkiliy va uyushmalarga soliq va boshqa soliqlar, to'lovlar borasida engillik va imtiyozlar berilishi bilan bogliq. Ko'pgina tadbirlar muhim ahamiyatga ega buladi.

Bularning barchasi rang tasvir san'ating eng nozik va yuksak badiiy namunasi bo'lishi miniatyura janrining zamonaviy asosda rivojlanishi, yangi va yuqori bosqichga ko'tarilishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbek miniatyura san'ati hozirgi kunda mustahkam goyaviy-badiiy va ilmiy asosga ega. Ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan miniatyura rangtasviri jahon sanati tarixida haqli ravishda farqli o'rinni egallaydi. XX va XXI asr boshlarida O'zbekiston rassomlari va xalq ustalari tomonidan ko'plab durdona asarlar yaratildi. Ular ijodiy xayolot boyligi mukammal ijrosi bilan kishini hayratga solibgina qolmay, o'zbek xalqining ko'hna tarixidan, badiiy madaniyatining serqirra va o'ziga xoaligidan ham dalolat beradi. Ular jahon sanatining Oltin fondidan farqli ravishda o'rin olgan.

Biroq miniatyura rangtasviri o'zbek xalqining barcha davrlar va xalqlar madaniyati xazinasiga qo'shgan eng salmoqli xissadir.

O'rta Osiyo o'zbek miniatyurasi Musulmon Sharxi san'ati ko'p asrlik tarixning eng qiziqarli sahifalaridan biri. U tasviriy san'atining alohida turi sifatida xitobat bezagi bo'lib, mumtoz Sharq shariyati tasvirida rivojlangan. Miniatyura san'ati "aks ettirib", tasvirlabgina qolmay, balki yaramadi. Musavvir o'ziga qadar mavjud bo'lgan o'ziga xoslikka, milliy o'ziga xoslikka yangi xususiyatlar va chizgilarni qo'shib, ushbu milliy "ruh"ning ilgari ma'lum bo'lmagan teranliklarini kashf etadi va uning istiqboldagi rivojlanishni ma'lum bir yo'sinda belgilaydi.

O'zbek dastgoh va monumental rangtasvirda uning butun tarixi davomida milliy muayanlikka murojaat qilib, o'ziga xosligini shaklan ifodalabgina qolmay, balki obrazlikning ramziy majoziy prinsipiga ko'proq tayanib, ma'naviy asoslarini ko'rsatishga azaldan intilib kelgan uslubiy yo'nalish mavjud XX asrning 10 yillari oxirida zuhr ko'rsatgan bu yo'nalish 20-30 yillar boshida bagoyat ravnaq topgan. (mazkurlardan tashqari N. Karaxan, O'. Tansiqboev, N. Kashina, A. Nikolaev (Usto Mo'min), so'ng mavjud aqidalarni egib o'tib, Sh. Hasanova, CH. Axmarov ijodida o'zini namoyon qildi. Biroq 60 yillardan boshlabgina amalgam belgilovchi yo'nalish bo'lib qoldi. U milliy ananalarigagina emas, balki XX asr boshidagi Evropa rassomligi ananalariga, shuningdek M.Savyan va P. Kuznesov ijodiga ham tayanib tarkib topdi. Ushbu rassomlarni o'zbek diyoro va o'zbek xalqining betakror obrazini yaratishiga intilish birlashtirib turardi.shu bois ularga kuzatuvchilik va qayt etuvchilik pozitsiyasi yot edi, ular ushbu hayotning ishtirokchisi sifatida voqea

bolardi. Ularning asarlarida milliy o'ziga xoslik sharqona garoyibotni siqib chiqarar, mavhum ramziylik esa, hayotiy ramzlarga o'rin bo'shatardi. O.Tatevosyan, N. Karaxan, O'. Tansiqboev, N. Kashina ko'proq shakl va kompazitsiyaviy echimni izlashar, shu bois ularning miniatyuraga bogliqligi yaqqol ko'rinar edi. Milliy hayot (biroq anana emas!) ular so'nggi, bevosita realistik yo'nalishda ijod qila boshlagan davrda yaratgan asarlarida nisbatan teran aks etgani etiborga molik. A.Volkovning ijodi murakkabroq shakllanib, rivoj topdi. U chetdan turib kuzatuvchi sanatkor emasdi, balki milliy hayotning "ruhiy" yashardi. A.Volkov milliy san'at (miniatyura va dekarativ amaliy sanat)qonuniyatlarini o'zlashtirar ekan, o'z badiiy asarlarini O'zbekiston xalq kuyi va sheriyati ohangdorligida boglardi. Shu bois biror uslubga monan ish qilish uning ijodiga xos emasdi. Undagi ziddiyatlik esa mutlaqo botiniy xususiyatga ega edi. A. Volkov ham sharqonalikka (oreantalizmga) hurmat bajo keltirib, boshqa rassomlarnikidan bo'lakcha tarzda zuhr topardi, chunki hayotning zohiriy shakllari uning uchun ushbu hayotninh teran mohiyati ifodasi bolib, milliy muayyanlik yo'li tabiiy bo'lib chiqdi. Ziddiyat boshqa narsada ko'rindi: rassom ijodida evropacha va sharqona mentallik hamjihatlikda mavjud bo'lib, turli davrlarda turlicha zuhr topdi. Bir tomondan 30 yillar portret rang tasviri, shu davrda yaratilgan rasmlar, natuyrmortlardir. Boshqa tomondan esa, uning asarlaridagi rang va nurgina emas, balki ritinnig dekorativligi, personaslarning qattiq mushohadakorligi obrazlarning kuchli manoviyiligidir. A.Volkov O'rta Osiyoga xos etnik tipni konstruktiv jihatdan "kashf" etdi. U muayyan insonni tasvirlashdan-da ko'proq hayotni jihatdan haqqoniy xalq tipini pisixologik jihatdan individullashtirmasdan tasvirlaydi. Inson shaxsning ushbu idial modeli mohiyatidan Sharq miniatyurasidagi inson obraziga yaqin, ayni mahalda, demokratizm bo'rtib turgan bevosita xalqchiligi bilan undan tubdan farq qiladi. Sanatkor insonning ulugvor mohiyatini, borliqning oily ma'naviy sohasiga aloqadorligini kundalik xususiyatlar orqali oydinlashtirib, goyoki oddiy hayotdan milliy aloqiy va estetik idiallarni "ajratib ko'rsatadi".

Ayni mahalda O'zbekiston rang tasvir san'atida dunyoni sharqona idrok etishga tayangan, ko'p jihatdan A. Nikolaev (Usto Momin) ijodiy kayfiyatlari

belgilab bergan boshqa yo'nalish ham mavjud. Usta mo'min O'zbekistonning milliy o'ziga xosligining rangtasvir san'atidagi muqobilini izlab, Sharq miniatyurasi XV asr umriya (Italiya) maktabi ananalarini qovushtirdi. U.P. Kuznesovning ilm rasmlari tasiriga borliqning idial modelini, nafaqat maddiy, balki ma'naviy mohiyatni ham qamrab oluvchi yagonalik va tasodifiylikning betartib xilma-xilligidan xalos bo'lgan qandaydir arxetektirni yaratishga intilish tasiriga uchragan bo'lishi ham mustasno emas. A. Nikolaev rasmlaridagi obrazlarning uygun jozibasi, mushohadakorligi hayotiyli shu bilan boglanadi. Oshkora shartli bo'lgan bu obrazlar, biz bahraman bo'la olmaydigan, oz qobigiga orangan hamda abadiyatga dahldor manaviyat va barkamollik olamida tabiiy ravishda uzviy mavjud. A. Nikolaev Sharqni Garb tamannudiga o'xshamasligi bilan idrok etgani holda, uning olamini his qildi ham ("Momin "ismini bejiz olmagan) shu bois uning asarlari sharqona uygun, kompazitsiyalari dekarativ va shartli makon sodda, tavsilotlar pur ma'nodir.

U miniatyura ananalarini mutlaqo shaxsiy qabul qildi: P. Kuznesov singari, sharqni, ranglarning haddan oshiq zabtidan xoli tarzda tasvirlay oldi. Bo'yoqni ko'pincha bo'g'iq, jozibasiz berdi, ayni mahalda ularda nafis, choziq-yoqimli konturning manodorligi va ritim osoyishtaligi ustunlik qiladi. U umrining poyonoda, tasviriy naturalism bosqichini o'tagach, "Uygur raqsi" (1945) "Otlar eri" (1947) asarlarini yarati, ularda avvalgi prinsiplarini tikladi, biroq ranglarni quyuq va bir-biriga zid berdi, tasvirlangan harakatlar ritnini bir muncha aniq hamda keskin ko'rsatdi. Tasvir avvalgi asarlaridan boshqacha xususiyat kasb etdi.

Ular hatti-harakat va ayni mahalda, muqaddas amal, diqqat bilan teran mushohada qilishga davit etuvchi ko'ngil izhori edi. Bunda sharqona ong xususiyatlari: olam-vahiy (inkishof) orqali egallanadigan sir, olam-rivojlanish hamda ozgarish yot bo'lgan tugal va barkamol tizim ekanligi o'z tasirini ko'rsatdi. Ushbu prinsiplar keyinchalik o'zbek rang- tasvirda rang-barang aksini topdi.

1.3. XX – XXI asr boshlarida O'zbekiston miniatyura san'ati

Ilk urinishlar. Ch. Axmarov miniatyura rassomligi maktabi.

O'zbekiston dastgoh rang tasviri ravnaqining sovet san'atida 50-60 yillarida vujudga kelgan, iliqlashuv davrida milliy maktablar shakllanishiga tenglashtirsa bo'ladigan yangi davri respublikada ilgariroq boshlangan edi. Sovet mafkurasi tiqishtirgan sostialistik reolizm aqidalaridan qutilishga 40 yillaridayoq muvaffaq bo'lgan yoki rassomlar orasida Sh.Hasanova va Ch.Axmarovning darakchilari bo'lishdi. Sh.Hasanova Sharq shoirlari, portretlar turkumini yaratib, zamon talablaridan chekinganligi bons tanqidga uchradi. Ch.Axmarov A.Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri uchun freskalar chizib, Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Ular o'z ijodida an'anaviy Sharq miniatyurasini asos qilib olib, butunlay qarama-qarshi yo'nalishdan ketishdi. Sh. Hasanova inson shaxsining idrok modellarini real manbalariga qaytargan kabi miniatyura poetikasini impressponizmdan keyingi ananalar bilan qovushtirib, o'z personajlarini individual-emoqponal va pisixologik jihatdan konkretlashtirishga nitildi. Rassom uslublattirib yaratgan bir qancha avtoportertlar bundan dalolat beradi. Natijada uning asarlarida olamni evropacha his qilish namoyon bo'ladi. Ch. Axmarov esa, aksincha, miniatyurani bevosita uslublattirishdan o'zi ishlab chiqqan ideal inson mavzum tegishli badiiy usullar orqali o'z rang tasvir tizimi tomon rivojlanib bordi. U.A.Matiss an'anasini yfigd qilib, sharqona miniarlikni o'z uslubiga, asosos qilib olib, sharq miniatyurasi poetikasini evropacha simvolizm bilan uzviy qovushtira oldi. Ayni mahalda Ch. Axmedov miniatyura konsepsiyasini jiddiy o'zgartirdi. Mumtoz sharq miniatyurasi syujetdan qatiy nazariy, kamida ikki semantic darajaga ega. Bu, aslini olganda, syujet va ramziy-majoziy darajalar bo'lib, ularda ilohiy haqiqatlar to'grisidagi vahiylar orqali mutarraf bo'linadigan ma'naviy va barkamol borliq alomati ifodalanadi. Rang, ritm, harakat, holat, tavsilotlar ramzi go'yo borliq siri ustidan pardani ko'targandek tuyuladi. Ch. Axmarov miniatyuraning ushbu xislatlarini amalda istisno etib, o'z asarlarida xotirjamlik, (raviganlik)hamda mushohadakorlik bilan yogirilgan mukammal borliqning o'ziga xos va ko'tarinki modelini yaratdi. Uning bosh mavzun- mumtoz

sheriyaat zamondan xoli, go'zallik, uyginlik va beguborlik hukm suradigan abadiyat bo'lgan ordular hamda ertaklar olami. Shuning uchun ham uning bo'yoqlari bo'yoq va sovuq berilgan, konturlar esa, nafis hamda musiqiy bo'lgan asarlarida raqs tushayotgan qizlar, soqiy yigitchalar soddalarcha sirli impersonal tasvirlangan. Ularning harakatiyoq nozik ritmik bezakni dekorativlik qonunlariga bo'ysindirilgan hamda me'morlikka uzviy kiradigan o'ziga xos antropomorf naqshni yuzaga keltiradi. Ch. Axmarov kompozitsiyalarida dinamika (jo'shqinlik) ko'rsatilgan. U bamisoli o'zgarmas mukammallik sehlagan va harakat to'xtab qolgandek tushuniladi. Bu erda olamning o'zgarmasligi olamni sharqona idroketishga muvaffaq holda tasvirlangan.

70-80 yillarda rassomlar e'tiborini simvolizm va syurealizm ko'proq torta boshladi. Ularning magzini chaqish reallikni bevosita tasvirlashdagina emas balki muhimi "ijtimoiy buyurtma" dan yiroqlashishga mafkuraga bogliq bo'lmagan va umuminsoniy "boqiy" mavzularga hamda qadriyatlarga qaratilgan umumhayotiy mavzularga, tarix falsafasiga, san'atiga, insonning ichki dunyosiga marojaat etishga ko'maklashdi. Rassomlar badiiy vositalarni mayyan milliy hayot negizida tanlashda o'z erklariga qarab ish tutishiga haqlidirlar. Biroq individual jihatdan har qancha muayyanlikka qaramay bu rassomlarning metodini tahliliyligi va fikrlashning tarixiyligi, ijodiy tasavvur erkinligi, voqeylikni bilish va tushunish singari qator prinstipial pozitsiyalar birlashtirib turadi. Ular hayotiy jarayonning ichki qonuniyatini aniqlashga intilishardi. Ular uchun olam yaxlit o'zaro aloqa va doimiy rivojlanishdadir. Bular turmush hamda borliq qaror topib va rivojlanib borayotgan hayot oqimiga qo'shilgan "ochiq tizimlar" dir.

Abdullaev Sa'dulla milliy borliq ideal modelining ariginal variantini yaratib, mumtoz obrazlarni hozirgi zamonga, ustiga – ustak, hozirgi shaharga ko'chirilgan. Ayni mahalda ularning ma'naviy ravshanligini va axloqiy barkamolligini saqlab qolgan. Biroq obrazga yashirin xavotirlik ham, erishilgan uygunlikning nozikligini tejash ham xos, chunki ular nazm olamida emas, balki voqei olamida yashaydi. Shu bilan birga O'zbekiston rangasvirida milliy yo'nalishning hayot bilan bevosita bogliq va mavzu hamda uslubiga ko'ra ancha rang – barang bo'lgan boshqa yo'l

ham rivojlandi. 70 – yillardagi avlod orasida B.Jalolov, J.Umarbekov, B.Muxammedov, Sh.Abdurashidov va A.Mirzaev bo'lib, ular, aftidan islomiy tafakkurga xos olamning yaralgan paradigmasi o'zgarmasligi prinsipidan kelib chiqib, zamonaviylikni ideal obraz bilan qiyoslaydi. Ular syutet va obrazlarning hayotiy ishonarliligini saqlab qolgan holda, kundalik voqelikni ulug'vor va sirli ma'noga to'liq borliqqa aylantirishadi. Shu sababli ularning kompozistiyasida dinamika bamisoli qotib qolgandek – zamonda ro'y beradigan vaziyat abadiyat alomatiga aylanadi. Bu uning qayd etilgan lahzasidir. Sh.Abdurashidov jizgan rasmlardagi umuman inson partretlarining keskin sitatistikasini va chuiqur mushohadasini, aftidan shu bilan izohlasa bo'ladi. Tashqi o'xshashlikka qaramay, paringanlik holati uning barcha modellarini birlashtirib turadi, shu sababli har xil bu kishilar ajralmas bo'lib chiqadi. A.Mirzaevning izlanishlari va echimlari rang – barangligiga qaramay, ularga ham “tugma xususiyatlar” xosdir. Ularda yorqin, ochiq, bir – biriga zid bo'yoqlarda berilgan xalq amaliy san'ati an'analari ham ko'rinib turadi, lekin sharq xatoligi bilan aloqadorligi betakrordir. A.Mirzaev mo'yqalamni qalamdek ishlatadi, uning harakatlari rassomning his – tuygusini ifodalaydi. Uning uchun ishora muqaddas bo'lmasa ham, alohida mazmunan ahamiyatga ega. A.Mirzaev asarlari – o'ziga xos tasviriy xatolik bo'lib, harakat esa, gilam yoki kashtaga o'xshab qayta qilinadi. Mirzaev ko'p qiyofali rasmlarda aniq bir shaxsni emas, balki xalqni ifodali umumiylikda va ko'pincha oliy nuqtai nazardan turli emostional hamda ritmik holatlarda tasvirleydi. Bu miniatyuraga ham, volkov an'anasiga ham yaqindir. A.Mirzaev asarlarining dunyoqarash nuqtai – nazardan sharq an'analari bilan bogliq ayni shu aloqasi uning ijodini O'zbekiston dastgoh san'atida milliylikning yaqqol ko'rinishlaridan biri, - deb hisoblash imkonini beradi. Milliy san'atdagi ushbu yo'nalish keyingi avlod rassomlari ijodida ham o'z ifodasini topdi. Bunda milliylik sharqona mentalitet darajasida tushuniladi.yosh rassomlar o'z asarlarida Sharq mumtoz san'atiga xos ma'naviylikni zamonaviy rang – tasvir plastika (turi) tili bilan ifodalashga urinishadi. Bunda gap odatdagi san'at an'analari haqida emas, balki ko'proq o'z “etnosinning chuqur ginetik xotirasi” haqida borishini aytib o'tish kerak. Bu

rassomlar tasvirlagan milliy turmushdan olingan etnik tiplardagini emas, balki ijodkor ularni qanday his etib, ko'rsata olishida ifodalanadi. Ularning asarlarida O'tra Osiyoning an'anaviy san'atidagi "abadiy" mativlar go'dak talqin etiladi. Bular shoirona go'daklik va obrazlik ramzlar sharqona mushohadakorlik va oxirigacha ochilmay qoladigan sirlilik, istora va mijozdir. Bu – nafaqat ko'rish, balki his etish ham zarur bo'lgan Sharqdir! Binobarin, hozirgi O'zbekiston rassomlari uning hayotiy marimini, o'tmish, davrlarni va zamonaviylikning plastik his etilishini ko'rsatishadi.

Miniatyurada chavandozlarni tasvirlashdan oldin, chavandoz so'zi qanday kelib chiqqani xaqida aytib o'tsak. Chavandoz –bir qator antik davlatlar(Qadimgi Afina .Rim va Fesaliya) da asilzodalar qatoridagi imtiyozli tabaqa .Ular asilzodalar kabi katta mulklarga ega bo'lgan. Chavandoz tarkibiga katta er egalari, xarbiylar, sudxo'rlar, yirik savdogarlar va boshqalar kirgan. Sosoniylar Eronidagi aloxida ijtimoiy tabaqa bo'lib, Garbiy Evropadagi ristarlikka yaqin turgan; Chavandozlar ot choptirish, uloq chopish, otda o'ynash san'atini egallagan odamlar.Chavandozlarni otsiz tasavur qilish qiyin albatta. OT. Xonaki ot (Equus caballus)-otsimonlar oilasiga masub toq tuyoqli o'txo'r hayvonlar avlodi. O'rta Osiyoda va Evropaning janubiy sharqiy qismida xonaki otlar milotdan avvalgi 3-ming yillikdan ma'lum edi. Otlar yovoyi holda Evropada, Osiyo va Afrikada uyur bo'lib yashagan. Ular 4 kenja avlodga bo'linadi; haqiqiy OT (bularga Prijevalskiy oti, qirilib ketgan tarpanlar va xonaki otlar kiradi), eshaklar, yarim eshaklar va zebralar . Xonaki otlar ,eshaklar,zebralar va qulonlar bilan chatishtirib, duragaylar – xachirlar, ot hachir, ot-qulon, zebrasimonlar va qulonsimonlar olinadi. Lekin bular, otdan nasl bermaydi.

Ot ko'p asirlar mobaynida asosiy transport vositasi,qishloq ho'jaligining asosiy ish hayvoni edi. Shuningdek, armiya uchun ham juda ko'p ot talab qilinardi.

Hozirgi zamondagi ot zotlari bo'yi 2,5 m gacha,balandligi 50sm dan 185 sm gacha, vazni 60 kg dan 1500 kg gacha boradi. Ular boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlaridan tez yugurishga yaxshi moslashgani, katta tortish kuchiga egaligi

bilan ajralib turadi. Aygirlarning tishi 40 ta (12 ta jag tishi). Baytalida qoziq tishlar bo'lmaydi, tishlari soni 36ta.

Qulunlarning sut tishlari 6—9 oyda o'sib chiqadi, 5 yoshga to'lganda sut tishlari doimiy tishlar bilan almashadi. Ustki va pastki jaglarda qoziq va jag tishlar orasida tishsiz joy (bo'shliq) bo'lib, otni suvluq bilan bosh-qarish imkoniyatini beradi. Oshqozoni oddiy tuzilishga ega, o't xaltasi yo'q, terisining junlari nisbatan kalta(1 — 4 sm), to'gri, jingalakligi kam uchraydi, peshonasining gajagi, yoli va dumi qillardan iborat. Baxorda va kuzda tullaydi. Tusi har xil. Otlarda shartli reflekslar tez paydo bo'ladi. Shuning uchun ular qo'lga tez o'rganadi, ishda, sportda, stirkda ulardan foydalanish o'ngay. Otlar 25, ba'zan 40 va undan ortiq yil yashaydi. Ishchi va sogin Otlardan 15—18, nasldor Otlardan 18—20 yil va undan ortiq foydalaniladi. Yosh otlar 1,5 yoshida jinsiy etiladi, lekim 3—3,5 yoshgacha nasl olishga quyilmaydi. 5—6 yoshida o'sishdan to'xtaydi. Biyalar 4 yoshga to'lganda birinchi qulun beradi. Bo'gozlik davri 11 oy (340 kun)ga yaqin. Kamdan-kam egizak tugadi. Sogindavri 6—8 oy, ba'zan 10 oyga boradi, sutkasiga 11—15 l sut beradi. Otlar otxonada, otxona—yaylovda (baxordan kuzgacha) va yaylovda (yilbo'yi) boqiladi. Sutidan qimiz tayyorlanadi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan Otlarni go'sht olinadigan hayvon sifatida xam boqadi.

Naslchilik (yangi zotlar etishtirish) ot zodlarida, yilqichilik xo'jaliklarida, yirik fermalarda, naslchilik, sun'iy uruglantirish san tanstiyalarida olib boriladi. Yangi tugilgan toychoq «qulun», 2 yoshlisi «toy», 3 yoshdagisi «go'non» va 4 yoshlisi «do'non» deb ataladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarda 250 dan ziyod ot zotlari mavjud. Shundan 50 dan ortiqrogi yaqin MDH mamlakatlarida va 8 tasi O'zbekiston hududida urchitiladi. Hozirgi zamon otlari birbiridan tana tuzilishi va yaqqol ix-tisoslashganligi bilan fark, qiladi. Shular jumlasiga egarlab salt miniladigan otlar (qadim Arabi oti, Axaltaka ot zoti, Yovmut oti, Angliya asil ot zoti va b.); salt miniladigan, aravaga yoki chanaga qo'shiladigan yo'rtoqi ot zotlari (q. Don ot zoti, Gustul oti, Laqay ot zoti, Qorabayir ot zoti); ogir yuklarni tortadigan yukchi otlar (q. Ardena ot zoti, Brabant ot zoti, Vladimir ot zoti va b.) kiradi.

Qishloq xo'jalig'ida mexanizastiyalashning rivojlanishi bilan ot boqiladigan ko'pchilik mamlakatlarda 20-asir o'rtalaridan boshlab, Otning ot sporti, turizm, go'sht va qimiz olish uchun mo'ljallangan zot-lari etishtirilmoqda.

Otlarning sifati, ish qobiliyati va uzoq muddat foydalanish imkoniyati ularni boqish va asrash sharoitiga bogliq. Otxonada Otlar sul'i, arpa, javdar, makkajo'xori doni, kunjara va b. qo'shilgan tert, don-dukkaklilar pi-chani, sershira ozuqa (sabzi, lavlagi, kartoshka, silos), aralash em-xashak bilan, yozda o'tloqda boqiladi. Ot ozuqasiga har kuni osh tuzi qo'shib berish kerak. Kuniga 3 mahal sugoriladi. Otni ippologiya fani o'rganadi (yana k., Yil-qichilik).

OT ZAVODI — nasldor va yuqori sifatli chopqir va ishchi otlar etishtirish, mavjud ot zotlarini takomillashtirish va yangi ot zotlarini yaratish, naslchilik-selektsiya ishlari bilan shugullanuvchi maxsus xo'jalik (q. Yil-qichilik). OT SPORTI — otda yurish musobaqasi. Asosiy turlari: ot yo'rttirish; konkur-ippik (to'siqlardan sakrab o'tishning yuksak turi); uch kurash (manejda yurish), dalada sinash (yo'lda yurish, stipl-cheyz, kross) va to'siklardan sakrash; poyga, otda ov qilish, ot ustida mashq qilish va b. Mil. Av. 680 y.dan boshlab antik Olimpiada o'yinlari dasturiga ot aravalarda musobaqalar kiritilgan edi. Otda yurishning maxsus maktabi 16-a. boshida Italiya, Fransiya, Ispaniya, Avstriyada paydo bo'ldi. O'rta Osiyo, Zakavkaze, Shim. Kavkaz, shuningdek, kazaklar yashaydigan joylar (Don, Ku-ban, Ural, Terek)da qad. Zamonlardan milliy ot o'yinlari rivojlangan. O'zbekiston hududida O.s. taxm. 3 ming yil-lik tarixga ega. Ulost (ko'pkari), olo-mon-poyga, «agdarish», «k,iz quvdi» xalqning ommaviy milliy O.s. o'yin-lari x.isoblanib kelgan.

Hoz. Zamon O.s. 1900 y.dan Olimpia-da o'yinlaridan joy olgan. 1953 y.dan jahon va Evropa chempionatlari o'tka-ziladi. O.s. Xalqaro federastiyasi — GE1 (1921 y. tuzilgan) 100 ga yaqin mamla-kat milliy federastiyalarini birlash-tiradi. O'zbekiston O.s. federastiyasi vii|-;| 1993 y.da-p a'zo.

20-a.ning 30-y.lari boshida O'zbekistonda DOSARM (Armiyaga ko'maklashuvchi ko'ngilli jamiyat) tashkil qilingan edi. Unda armiyaning ka-

valeriya qismlari uchun otliqlar tayyor-lanardi. 1953 y. DO-SARM ot sporti klu-bi DOSAAF (Armiya, aviastiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngilli jamiyat) ot sporti klubiga ay-lantirildi. Shu yil-dan o'tkazila boshla-gan butunittifoq mu-sobaqalarida o'zbek sport ustalari mu-vaffaqiyatli qatnashgan. Adeksandr Kiselyov, Jo'ra Alimov, Vladimir Ara-fev, Roza Bagautdinovadan iborat ja-moa a'zolari DOSAAF mamlakat kubo-gini qo'lga kiritdilar (1954). 1960 y.gacha O.s. faqat poytaxt Toshkentdagi yagona sport klubi bazasida rivojlangan bo'lsa, keyingi o'n yil oraligida res-publikada bir qancha O.s. klublari va sekstiyalari ochildi. Xatqaro toifadagi sport ustasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy M. Ismoilov, shu-ningdek, V. Dvoryaninov, A. Abduqodi-rov, Yu. Kovshov, Iskandar va Ibrohim Yo'ldoshev, V. Petrov, S. Lisistin, A. Tankovlar olimpiada o'yinlari, jahon va Evropa chempionatlarida, boshqa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. 1990 y.gacha O.s. bo'yi-cha O'zbekiston terma jamoasi bu muso-baqalarda 50 dan ortiq medalni qo'lga kiritgan.

O'zbekistonda respublika O.s. oliy mahorati maktabi, 3 ta olimpiya zaxi-ralari maktabi va 5 ta bolalar hamda o'smirlar sport maktablari faoliyat ko'rsatadi (2003). Har yili O.s. bo'yicha respublika chempionati o'tkaziladi. 1997 y.dan O'zbekiston milliy terma jamo-asi mustaqil ravishda xalqaro musoba-qalarda qatnashadi. O'zbekistonliklar jahon kubogi musobaqalarida to'siklar-dan sakrash bo'yicha 1-o'rinni egalladi (2003 y., Bishkek sh.), Gayrat Nazarov «Kovum» laqabli otida jahon kubogi-ni qo'lga kiritdi (1998, Olmaota), Ser-gey Shmelev, Iskandar Yo'ldoshev, Aleksandr Martinov, Anna Lisyak so-vrinli o'rinlarni egalladilar. **OT O'YIN** — stirk san'atining qad. Turi. O.o'. harbiy mashqlar, chavandoz-larning xalq o'yinlari, musobaqalari («chovgan», «qiz quvish», agdarish», poyga va h.k-) Dam kelib chiqqan. 19-a.Ot o'yin.

Oxiri va 20-a. boshlarida o'zbek stirki tarixiga Rahmonovlar, Xo'jaevlar, Zarifovlar sulolasi kirib keldi. Ular repertuaridan 1 tadan 6 tagacha ot o'yna-tish, egarlangan va egarsiz ot ustida yakka yoki ko'pchilik bo'lib raqsga tu-shish, jonglyorlik, muallaqchilik, tur-li murakkab mashqlar tomoshalari o'rin olgan. Hoz. Zarifovlar sulolasi O.o'.i jahon arenalarida katta muvaf-faqiyat b-n namoyish

etilmoqda. OTA VALIXONTO'RA MASJIDI –Namangandagi me'moriy yodgorlik (20-a. boshlari). Me'mor Mullo Qirgiz loyi-hasi asosida qurilgan. Masjid to'gri to'rtburchak tarxli (25,6x22,6 m), o'rta-sida xonaqoh (17,31x23,99 m), uning uch yoniga 11 ta balxi gumbazli hujralar joylashgan. Bosh tarzi sharqqa qaragan. Peshtoq darvozasi girih va islmiy naqshlar b-n bezatilgan. Burchaoariga mezanali guldastalar ishlangan. Xonaqoh garovli gumbaz (diametri 13,9 m) b-n qoplangan. Gumbaz ogirligi poygumbaz osti devoriga singib ketgan 8 qirrali burchaklari bo'ylab ko'tarilgan ravoqlar-ga tushadi. Me'morlar bu uslub b-n bino ichini ortiqcha gishtdan holi etib, ta-shqi va ichki qismi gishtlari mutano-sib terilgan, bu binoning yaxlitligi-ni ta'minlagan. Poygumbaz sirtidagi darchalar o'rtasida bezakli yozuvlar bor. Koshinkori moviy hoshiyalar xona ichi-ni yanada ko'rkamlashtirgan. Garbiy de-vorida chuqur ravokli mexrob joylash-gan. Peshtoq yonlariga 2 tadan 4 ta ravoq-li derazalar ishlangan. O.V.m. me'moriy ko'lami va qurilma echimi, mahobatli qiyofasi b-n o'ziga xosdir.

1.4. Sharq miniatyurasida rasm va rangtasvirning xususiyatlari.

Xattotdan so'ng ishni bajarishga musavvir-miniatyurachi kirishgan. Xattot o'zining bevosita ishi arab yozuvlarini chiroyli qilib yozibgina qolmay, muxarir vazifasini ham bajargan: varaqlarni joylashtirgan, frontispis/kitobining asosiy mazmunini tasvirlaydigan va titul beti yoniga joylashtiriladigan rasm /, zastavka / kitobning boshiga yoki bobi oldidan beriladigan rasim, naqsh, bezak va rasimlar uchun joy belgilagan. Lekin biz yuqorida aytib o'tganimizdek miniatyura 1 asirdan boshlab rasim bilan bezak funkstiyasidan tashqari rol o'ynagan.

Rassomning ish bajarish ketma-ketligi quydagi bosqichdan iborat bo'lgan: kompozitstiya rasmi musavvir tomonidan qalamni ishlatmagan xolda mo'yqalamni odiy suvga botirgan xolda kqchirilgan(chizilgan). Bunday usul chizuvchidan nuxsonsiz rasim chizish masalasini egallashni talab etgan , chunki miniatyuradagi syujetlar murakkab, ko'p figuralar va detallardan iborat bo'lgan. Qurigandan so'ng suvdan qolgan izlar ustidan kompozitstiyadagi rasim qizil va qora siyoxlar yoki tushlar bilan chizib chiqilgan. Ishning bu jarayoni "galyamgiri"yoki "qalamgiri"deb nomlangan, bu turkiy yoki forsiy tillar dialektikasiga bogliq. Tayor bo'lgan rasm "nireng"deb nomlangan va klester aralashmasi, tuxum oqi bilan siliqlangan va jilo berilgan. Yupqa grunt ostidan qurigan rasim konturi chizib chiqilgan va qurigandan so'ng ranglashga o'tilgan.

Kamoliddin Behzodning tugatilmay qolgan miniatyurasi "Sulton Xusayin Mirzo bogda" 15 asir Xirot. Bizga musavirning kompozitstiya ustidagi ishining ketma-ketligini aniqlash imkonini beradi. Agar realistik san'atning asosiy metodi umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumlashtirishga suyansak, bu qonun sharq miniatyura rangtasvirida bir oz boshqacharoq ko'rinadi. Rassom kompozitstiyadagi eng katta tekisliklarni-er, osmon, arxitekturani va manzaralarni bu miniatyuralarda bog yashilliklari , gullar, daraxtlar va qasir devorlarining bir qismi ishlanganlar rang bilan qoplab chiqadi. Shu bilan extimol evropacha rangtasvir metodi, postulatilar isbotsiz asos kilib olinadigan qoidalar ham

tugaydi. Shundan so'ng ish ketma-ketligi kompozitsiyadagi detallarni bir rang, keyin ikkinchi, uchinchi rang bilan bir predmetdan ikkinchi predmetga o'tish orqali bajarishga asoslangan. Yozishning bu metodi ranglarning lokal tonlarini qo'llanilishiga asoslangan. Yozishning bu metodi ranglarning lokal tonlarini qullanishiga asoslangan. Ranglarni qo'shish kerak bo'lganda ham faqatgina ikki rangni olib qo'shish tavsiya etiladi, bunda ham ikki rang yangi yorqin rangni bersagina qo'shish mumkin. Palitra tushunchasi u vaqtlarda bo'lmagan. Tayorlangan ranglar unqa katta bo'lmagan idishchalarda saqlarda saqlangan va rassom navbati bilan mo'yqalamni botirib olgan. Miniatyura rangtasvirini emostional ta'siri quydagicha qurilgan: yorqin, hamohang lokal ranglar kontrasti, kompozitsiyaning dekorativ go'zalligi, zargarona, aniq detallarni ishlash orqali uzoq vaqt mushoxada yuritishga, shu bilan bir qatorda tilla va nuqraning ishlatilishi garmonik san'at asarlarining tugilishiga olib kelgan.

Navbat bilan barcha detallarni yozib chiqish rassomdan katta moxirlik va koloritni nozik xis qilishni talab qilgan. Mo'yqalamni qo'lga dadil olish kerak, uni jiddiy, zo'riqib ushlamaslik lozim.

1.5. Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida Temuriylar davrida alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk zotlardan tarixchi Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Davlatshoh Samarqandiy, olimlar: Ulugbek, Ali Qushchi, shoirlar: Abdurahmon Jomiy, Alishnr navoiy, musavvirlar: Qosim Ali, Mirak Naqqosh, Mahmud Mo'zahhib, Hattotlar: Sulton Ali Mashhadiy va juda ko'p atoqli zotlarni sanab o'tishimiz mumkin. Shu davrda yashab ijod etgan to hozirgi davrgacha nomi nafaqat Markaziy Osiyo, balki, Jahon miqyosida tan olingan ijodkorlardan biri Kamoliddin Behzod bo'lib hisoblanadi.

Sharq xalqlarining rangtasvir san'ati hisoblanmish miniatyura san'atining rivojlanishi bevosita Behzod nomi bilan chambarchas bogliqdir.

Behzod nomi tiriklik chogidayoq (1455-1535) Xurosondan tashqari ham keng tanilgan edi; uning ko'plab shogirdlari va davomchilari bo'lib, uning asarlaridan o'rgandilar, xush ko'rib bunga taqlid ham qildilar. Behzod ijodi Hirot, Tabriz, Buxoro va Samarqand, Hindiston (Dehli va Agra rangtasvir) maktablari va boshqa miniatyura maktablarining keyingi rivojiga katta ta'sir kursatdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan miniatyura maktablari rivojida Behzodning to'tgan o'mi va u yaratgan maktab haqida biz oldingi boblarda fikr yuritdik. Ushbu bobda Behzod hayoti va faoliyati, uning asarlarining kiskacha taxlillari hamda musavvir hayoti va ijodi bilan boglik bo'lgan voqealar tasviri keltiriladi.

O'z davri va undan keyingi avlod musavvirlari yo'lini porloq yulduz misol yoritgan Movarounnaxr va Xurosonda yashagan, Sharq uygonish davri vakili Kamoliddin Behzod 1433 yilda Hirotida kambagal xunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasidan yoshligidan judo bo'lgan. Behzod iste'dodini payqagan sulton Xusayn Boyqaro kutubxonasining kitobdori, musavvir Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) unga tutingan ota bo'ladi va uni voyaga yetkazadi. Bo'lajak musavvir Mirak Naqqosh qo'lida, uning Hirotidagi Nigoristonida miniatyura va naqqoshlik sirlarini o'rganadi.

Tarixchi va san'atshunoslar fikrlariga ko'ra Behzod 1470 yildan o'z ijodiy faoliyatini boshlagan.

Behzod musavvirlik sir-asrorlarini Buxorolik musavvir “Umdat al musavvir” deb olgan ustod Jahongir va o’rta Osiyo musavvirlik maktabining asoschisi ustod Gunchning ishlarini davom ettirgan naqqosh Pir Ahmad Tabriziydan o’rgangan.

Behzodning buyuk musavvir bo’lib tanilishida Sulton Husayn Boyqaro va buyuk Alisher Navoiy hissasi kattadir.

Biz Behzod ijodi va faoliyatini o’rganar ekanmiz uch davrga diqqatimizni qaratamiz. Birinchisi Behzod tugilgan va yashagan yurt Hirot Temuriylar davri, ikkinchisi Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri Hirot va Buxoro, uchinchisi Savafiylar sulolasi hukmronlik qilgan - Hirot va Tabriz shaharlaridir. Musavvir Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Ismoil Savafiy va Shoh Taxmasb Savafiylar hukmronligi ostida yashab ijod etdi.

Kamoliddin Behzod mashhur musavvir bo’lib tanilgach, sulton Husayn Boyqaro unga saroydan joy ajratadi va 1487 yil shaxsiy farmoni bilan uni Hirotidagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi. Bunday yuksak martabaga erishgan Behzod ustaxonasini ingliz san’atshunos olimi F. Martin quyidagicha ta’riflaydi: “Sharq quyoshi Behzod uchun qurilgan shinam hujrani nurga garq yetdi. Bu yerda naqqosh pastakkina kursi ustida engashib ishlardi. Kursining tortma xonachalarida shoh asarlar yaratish uchun zarur bo’lgan barcha narsa muhayyo. To’g’ri, Behzod Yevropalik musavvirlarnikidek keng va qulay ustaxona (studiya)ga ega bo’lmagan. Uning ish joyi oddiygina bir hujra bo’lib, oq marmar devorlari mohir Sharq Hattotlari tomonidan Qur’on kalimalari bilan mo’zayyan etilgan. Hujrada bo’yra to’shalgan. Burchakda gilam ustida bir nechta yostiq . bu mehmon yoki muxlislar uchun qo’yilgan edi. Hujra orqasi bog, sokin suvli hovo’z, undan nariroq gulzor va daraxtzor. Hujra atrofida atirgullar chamandek ochilib yotardi... shu muhitda Behzod o’tirib, nozik mo’yqalami bilan rasm chizirdi. Nozik mo’yqalamni undan ilgari ham, keyin ham hech bir musavvir Behzodchalik ishlatishga muvaffaq bo’la olmagan” (N.Norqulov, I.Nizomiddinov miniatyura tarixidan lavhalar T, 1970).

Behzodning mavqei miniatyura san’atining portret janri shakllanishida beqiyosdir. Uning portretlaridagi odamlar individual o’xshashlikka ega. Usta rassom va nozik did sohibi Behzod faoliyatini XV asrning oxiri XVI asr boshlarida

yashagan Hirot solnomachisi Zayniddin Vosifiy yodnomalaridan ham bilib olishimiz mumkin. U shunday deb yozgandi: - «Doimo shoh (Sulton Husayn) gam tashvishdan va notinchlikdan ranjigan vaqtda, Behzod portretlarni yoki biror bir Behzod chizgan suratlarni tomosha qilar edi. Husayn Boyqaro portreti bizning davrgacha yetib kelgan (O'zS.E. T.2 205 b).

Tasvirda shoh cho'kka tushib, kim bilandir suhbatlashayotgandek tasvirlangan. XV asr oxiriga kelib Hirotida Temuriylar saltanati yemirilishi boshlanadi. 1501 yilda Alisher Navoiy, 1506 yilda Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. 1507 yilda Hirot Shayboniyxon qo'liga o'tadi. Ko'pgina san'at ahli Hirotidan chiqib ketadi. Behzod san'atiga shaydo bo'lgan Shayboniyxon unga qulay sharoitlar yaratib beradi. Shayboniyxon o'z vaqtida Buxoroda tahsil olgan bo'lib, ilmiy, adabiyot va san'at homiysi sifatida ham tanilgan. Behzod Shayboniyxonni Hirotida bo'lgan paytda oddiy, lekin bejirim kiyimda tasvirlangan. U chordona qurgan holda qora bolishga suyangan holda o'tiribdi. Oldida yozuv ashyolari siyohdon, qamaldon va kitob. Portretida salobatli, baquvvat gavdali, o'z qadrini biladigan kishi sifatida tasvirlangan. Portret to'q qirmizi, qora, zangori, oltin sariq kabi ranglardan foydalangan holda chizilgan. Qora va qirmizi ranglar xususida adib Primqul Qodirov bir muncha boshqacharoq fikr yuritganlar.

1510 yilda Shayboniyxon Mavr yonidagi jangda yengiladi va Hirot Savafiylar sulolasi vakili Shox Ismoil Savafiy o'tadi. 1512 yil saltanat poytaxti sifatida Tabrizga ko'chiriladi. Iste'dod sohiblari qatori Musavvir Behzod ham Tabrizga olib ketiladi. Endilikda Hirot poytaxt sifatida o'z mavqeini yo'qotadi. Hirot musavvirlari uslubi endilikda Tabrizda namoyon bo'la boshlaydi. Shoh Ismoil Savafiy Behzodga ijod qilishi uchun barcha shart sharoitlarini yaratib beradi. Behzod bu sulola davrida ham uluglanadi va maxsus farmon chiqarilib Tabrizdagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlanadi.

Shoh Ismoil 1522 yili Behzodni Tabrizda shoh kutubxonasiga boshliq etib tayinlar ekan, quyidagi so'zlarni insho etadi: "Asr nodirasi musavvirlar peshvozi, muzahhiblar yetakchisi Ustod Kamoliddin Behzodkim, uning chehra ochuvchi mo'yqalamidan Moniy joni xijil bo'ladi, suratga oro beruvchi qalamidan lavhalari

hijolat chekdi, shunga binoan unga shu narsa taalluqli va lozim topilsinkim, payvasta qalamni ljrosi vojib farmonga bosh cheqirib, halifa nishonli shodshoh ostonasining mulozamati markaziga uning qadamini pargarmisol mustahkam qo'yib, xisravona lutf va shohonamarhamat bajo keltirib hukm etamizki, oliyhazrat kitobxonasi ahli, kitob, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, xalqor, zarkub, panohidagi mamlakatning mazkur hunarlarga mansub bo'lgan boshqa jamoati uning ixtiyorida bo'lsinlar. Pok dilli amirlar, monandi yo'q vazirlar, olampanoh dargohdagi noiblar, sulton xizmatidagi muboshirlar, umuman, devor ishlari mutassadilari, shoh kitobxonasi aholisi va mazkur ustod zimmasiga mustavfiy va kalontarlik ishini topshirilgan deb hismoblab, kitobxona ishlarini ado etishni uning zimmasiga yuklatils in.

Bu davrda musavvir ismoil I portretini ham chizganligi ma'lum. 1524 yilda Shoh Ismoil Savafiy vafot etadi. Davlat tepasiga uning o'gli shahzoda Taxmasb keladi. Musavvir unga vusavvirlik sirlarini o'rgatadi. Shunga qaramasdan u Behzodni o'zining shogirdi va jiyan Muzaffaralidan past qo'yadi. Muzaffaraliga "naqqoshlar shohi" unvonni beradi (O'z. S.E. T2 2204 b).

Kamsitilgan Behzod yana Hirotga qaytadi. Kamoliddin Behzodning ishlagan suratlarni sanogiga yetish qiyin. Shu sababli biz musavvir ijodi va merosini o'rgangan tarixchi va san'atshunoslar (jumladan O.Usmonov, N.Norqulov, T.Mahmudov va boshqalar fikriga ko'ra eng mashhur deb hisoblangan ishlari nomlarini keltiramiz.

1. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"siga ishlangan miniatyura. Ushbu miniatyuralarda tarixiy voqealar, jang, ov manzaralari saroyidagi qabul marosimlari, qurilishlar tasvirlanadi. Musavvir jangchilar jasorati va mehnat jarayonini tabiiy ishonarli qilib tasvirlagan. Miniatyuralarda kompozitsiya yuqoridan ko'ringandek tasvirlanishi ko'p hurmatli kishilar va manzaralarni tasvirlab berish imkonini yaratgan. Ushbu turkumdagi ishlarga Xiva qal'asini zabt qilish, "Jang", "Samarqand masjidini qurish" kiradi. Ranglar yorqin, zarhal bo'yoqlar ko'p ishlatilgan.

2. Amir Xisrav Dehlaviy va Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" lariga ishlangan miniatyuralar. Ushbu miniatyuralar 1492-1500 yillar orasida ishlangan.

Nizomiyning “Layli va Majnun”, Dehlaviyning “Majnun va Layli” siga ishlangan miniatyuralar Behzodning bu davrda yuksak mahorat cho’qqisini egallaganligidan darak beradi.

3. Portret tasvirlari. Behzod murakkab portret sohasida ham qator tasvirlarini yaratgan. Jumladan, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmasb, Abdurahmon Jamiy va boshqalarning tasvirlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

4. Sa’diy “Guliston” va “Bo’ston” asarlariga ishlangan miniatyuralar.

5. Jomiyning “Salomon va Iqbol” asariga ishlangan rasmlar.

6. “Tuyalar jangi” surati 1525 yilda yaratilgan bo’lib, chuqur falsafiy ma’noga ega bo’lgan asardir.

Kamoliddin Behzod ishlari Fransiyaning Luvr muzeyida, Berlindagi milliy kutubxona, AQShning Boston Metropolitenida, Qohira muzeyida, Britaniya muzeylarida, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida, Erondagi Guliston saroyida, Turkiyaning To’pko’ti Saroy kutubxonasida, Qoxiradagi “Islom san’ati” muzeyida, Mashhuddagi Ostona’i Quddus majmuasida, ko’pgina shaxsiy kollektionerlar qo’lida saqlanmoqda.

Shu bilan bir qatorda shuni ta’kidlash joizki, sharqqa xos kamtarlik tufayli musavvir, hattotlar o’z ishlariga imzo qo’ymaganlar. Shu sababli ko’pgina miniatyuralar san’atshunos olimlarning ushbu san’at tadqiqotchilarining zaxmatli mehnatlari tufayli aniqlanib o’z muallifini topmoqda. Musavvir 1537 yilda Hirotida vafot yetdi.

Hunarni asrabon ketgumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir

Kamoliddin Behzod jahon san’ati tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Biz Behzod haqidagi fikrlarni turli davrlarda yashagan mashhur shaxslar so’zlarida kuzatamiz. Hattot Do’st Muhammad “Kamoliddin Behzod zamondosh mo’yqalam sohiblari orasida eng yaxshi musavvir va hattotlar boshligi, o’z san’atining cho’qqisiga erishgan ulug’lardan edi» deb ta’riflangan edi.

“Hattotlar va musavvirlar to’grisidagi risola”da Qozi Ahmad “Qisqa bir vaqt

orasida Behzod shu darajada mohir musavvir bo'lib yetishdiki, rangtasvir paydo bo'lgandan buyon bu sohada san'at ahli orasida unga teng keladigani yo'q edi", uning ko'mir bilan chizgan tasviri mahorat jihatdan Moniy tasviridan ham afzal. Agar buni Moniy bilganida undan shubhasiz, andoza olardi» deb ulug'laydi.

Tarixchi Xondamir "Xabib-us-siyar" asarida "Kamoliddin Behzod ajoyib va garoyib suratlarni zohir qiluvchi, hunar yodgorliklarini bunyod etuvchi, Moniy surat chizuvchi, mo'yqalamli, olam musavvirlari asarlarini (ajoyib suratlari bilan) yo'qqa chiqaruvchi va misli yo'q 9 nozik hunarlarga mohir) barmoqlari bilan bari odam xunarmandlari tasvirlarini mavh qiluvchidir... deya yuksak baho beradi. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning monumental tasvir sohasidagi ishlari butunlay kitob sahifalariga ko'chgan davrning ulug' vakilidir. Behzod ijodiy kamolot cho'qqisiga erishgan paytlar Hirotning bogi Safididagi Tarabxona ko'shki devorlariga jangovor tasvirlar ishlangani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Keyinchalik, asosan, kitob miniatyuralari keng taraqqiy topdi.

Alisher Navoiyning zamondoshi tarixnavis Zayniddin Vasifiy «Badoiy ul vaqoe» asarida qiziq bir hodisani yozib qoldirgan. Mashhur musavvir yangi suratni Amir Alisher majlisiga keltirgan. «suvratda tasvirlanishicha - davom etadi Vosifiy, - orasta boglar, turli-tuman daraxtlar... xushsuvrat qushlar, xar tarafda ariqchalar... Ochilgan zangori gul tuplari va uning orasida Mir (Alisher)ning yoqimli xush suvrati. U hasoga tayangan... yonida soqchi uchun zar to'la tabaqlar. Hazrati Mir ul suvratni mushohada va mulohaza qildi: ul nafis sahifa-boglar ichra latif va shodlik gullar, xayoliy hovo'zlar atrofi go'zal va ho'zur bagishlovchi daraxtlar bilan bezatilgan..(N.Norqulov, Kamoliddin Behzod. T, 1964).

"Behzod ishlagan miniatyura tasvirini ko'pchilik tomosha qilib, uning badiiy jihatdan o'sha davr estetik talablarga juda monand ekanligi odatdagi holdek qabul etadilar. Tasvirlarning qanchalik tabiiy va jonli ekanligi haqida hazil - mutoyiba borar ekan, odam va qushlarning tasviri islom dinida qat'iyan mann etilgani yigindagilarning xayoliga ham kelmagan. Demak, Alisher Navoiy homiyligi ostida o'sha davr miniatyura san'atining ravnaq topgani ham bejiz emas» - deb yozadi P.Zohidov.

Fransiyalik san'atshunos olim I.Shchukin Alisher Navoiyning Kamoliddin Behzod talantining shakllanishi va voyaga etishgandagi ta'sirini quyidagicha izohlaydi: «Behzod - musavvir Mirak Naqqosh rahbarligida shakllangan bo'lsa-da, ijodining yuksak bosqichiga ko'tarilishi, davlat arbobi, mesenat shoir Alisher Navoiy rahbarligida bo'ldi. Xuddi ana shu zotning homiyligi, rahbarligi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi natijasida... ustod Behzod va Shoh Muzaffarlar rassomchilikda shuhrat qozondilar».

Afgonistonlik professor Abdulhay Habibiy "Hirotnik Behzod yoqqan san'at va nafosat mash'alasining so'nmas nurlari Isfaxon, Tabriz, Istambul, Buxoro va Samarqandgacha borib yetdi" - deya Behzodni ulug'laydi.

A.N. Boldirev «Alisher Navoiy» kitobida Vosifiyning bir hikoyatini keltiradi: «Alisher Navoiy qoshidagi bir majlisga musavvir Behzod endigina tugatgan bir miniatyurani olib keladi. Unda shoir gullagan bog ichida tasvirlanadi. Navoiy bu suvratni yigilganlarga ko'rsatib fikr so'raganda, shunday olqishlarni eshitadi. Suhbatdoshlaridan biri bu suvratni ko'rib, undagi gullardan birini o'zib o'z sallasiga qistirib olmoqchi bo'lganligini, ikkinchisi - shu gullarga qo'l uzatsa daraxt shoxidagi qushlarni uchirib yuboraman deya xayolga borganini, eshik oldida o'tirgan uchinchisi esa bu holatda Navoiyning qoshlari chimirilgandek bo'lganligini, to'rtinchisi esa, Navoiy qo'lidagi hasoni olib gulni uzmoqchi bo'lgan kishini urishga hozir ekanligini bayon etadilar.

1910 yilda Myunxenda musulmon san'ati ko'rgazmasi ochilgan. Bu ko'rgazmada Hirot miniatyurasi maktabining asosiy vakili, Marten aytgandek, sharq Rafaeli - Kamoliddin Behzodning 10 dan ortiq asarlari namoyish qilindi. Ko'rgazmadagi bebaho kartinalardan biri, shubhasiz, Behzodning 1507 yilda chizgan O'rta Osiyodagi o'zbek davlatining boshligi Shayboniyxon portreti edi. (hozirgi kunda bu portret AKShda, kolleksionerlar qo'lida). Myunxen ko'rgazmasida hamma Behzodning buyukligiga tan berishdi. Hayratga tushgan Renuar jilvakor, ravshan ranglar oqimiga, tomdan tarasha tushgandek, toza qora rang qo'shilib, qogozdagi tekislikning o'ziga xos qurilishi boshqarib turilganligini ko'rib, o'z ko'zlariga ishonmadi.

Matiss esa Behzod asarlarini ko'rgandan so'ng, asarlariga yana ham — Sharqona" tus berdi. Uning 1910 yillarda. Ya'ni 11- Myunxen ko'rgazmasidan so'ng yaratgan —Qizil baliqlar" (1911), —Kazbaga kirish yo'li" (1912), — Derazadan ko'rinish", —Tanjer" (1912), — Rassom ustaxonasi" (1911), — Ayvonda turgan Zoro portreti" (1911) va nihoyat — Marokash ayoli" (1912) asarlarga e'tibor qiling. Ularga qarasang, rassomning Yevropa dastgohli rangtasvirining klassik prinsiplaridan uzoqlashganini ko'rasiz. Bulargacha ularning Sharq gilami ustidagi —Haykalcha va guldon" (1908), — Mevalar va bronza" (1910) va boshqa yaratilgan asarlarida ranglar silliqligi, serjilva, quyuq bo'yoqlarning berilishi ham bejiz emas (Mikael Abdullaev, Behzod va Matiss "O'zbekistoni san'ati": 1980 №8).



Kamoliddin Behzod. Shayboniyxon portreti,
1507.



Navoiy buyuk shoirlar o'rtasida. Sad di Iskandariy. 1485 y.

II. Bob. Lakli va terida miniatyura kompozitsiyasi

2.1. Lakli miniatyurada qo'llaniladigan asbob materiallar

X-XI asrlar mobaynida qogoz ishlab chiqarish texnologiyasi butun O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga tarqalgan . Yuqori sifatli qogoz ishlab chiqarish markazlari paydo bo'lib, ular o'sha joy nomlari bilan Yuritilgan: bahdodiy samarqandiy, isfaxoniy, buxaroi, kashmiriyva boshqalar."Xitoy " qogoz navi xitoylil asirlar olib kelgan texnologiya bilan boglangan xolda yaxshi navli qogozar ishlab chiqilgan, ulardan qolishmaydigan Samarqand va Buxoro navidagi qogozlar xam shuxrat qozongan.Ular o'zining mustaxkamligi , ideal oqligi va tekis yuzasi bilan ajralib turadi.Qogozga maxsus ishlov berilgan: silliqlangan, yaltiragan va ishlatish joyiga qarab rang berilgan.Qogozni yozish uchun, bezak berish uchun yoki rangtasvir uchun kraxmal va yaltiroqlar bilan bezatilgan va foydalanilgan. Kraxmal siyox va rangni sizib o'tishga yo'l qoymagan va o'ziga xos grunt vazifasini o'tagan.Suv va kraxmaldan tayorlangan massani kerakli miqtorda olib qaynatganlar. Hosil bulgan yarim suyuq massani qogozning har ikkala tomoniga surtganlar, notukisliklar va chuqurliklarni ho'l biror narsa bilan tekislaganlar.Qogozni soya joyda quritganlar .Qogozdagi klester qurigandan so'ng kashtan taxtasi ustida billur tuxum bilan yoki boshqa yaltiratadigan predmet bilan sayqal berilgan.

Silliqlashning boshqa usullari ham bilgan – elimli va kraxmaldan, elim va tuxum oqi bilan va kazolar. Qogoz ranli chiqishi uchun kraxmal kleysteriga kerakli suyuq rangni qo'shganlar,qurigach jilolangan so'ng qogozdagi ton,yozish va dekarativ bezash fon sifatida xizmat qilgan . Qogozni ikki tur bilant bo'yalgan: pardozlash vaqtida qraxmalli yoki boshqa turdagi elimga rangni ko'shish va bevosita qogozni shidirib bo'yash. Bunda ustalar rangning estetikasi va odam ko'ziga ta'sirini juda noziklik bilan

sezganlar: kulrang-qizgish, yashilcha-sariq, och sariq rang, och binafsha rang, havorang, havorang-yashilning past tuyunmasi va boshqalarni tanlaganlar. Bo'yovchi materiallar sifatida odatda tashqi ta'sirga chidamli bo'lgan o'simliklar-shafran, xino, tut daraxti, nil va yar-mednyakdan foydalanganlar. Qogozni sariq rangga bo'yash uchun issiq suvga shafranni ma'lum miqtorda solib eritganlar, xosil bulgan eritmani dokadan o'tkazib qogozga shimdirganlar va soya joyda ipga osib quritganlar. Agar qizil ranga bo'yash uchun bakanning eritmasiga qogozni bir soat-saqlab so'ng soyada quritganlar. Agar qizil rangning qirmizi tusi kerak bo'lsa tut daraxtining qaynatmasidan foydalanganlar. O'rta asirlarda miniatyura ustasini mo'yqalam tayorlashini bilish zarur bo'lgan va katta o'rin tutgan. Rassom mo'yqalamni yumshoq, nozik detallarni chizish uchun uchlik bo'lishi, chizishga qulay bo'lishi lozim. Bo'nday mo'yqalamdan ornamentalchi, zarxal beruvchilar ham foydalanishgan. Ma'lumki, ular mo'yqalamni ikki oylik mushukning bo'yin qismidagi jundan olib tayorlaganlar, ayniqsa uzunroq jun qadirlangan. Kesib olingan junni ustalar avval issiq suvga yuvib yogsizlantirganlar, so'ngra har bir tolasini chinni plastinka ustiga terib qurutganlar va yo'nalishiga qarab tekislaganlar. Xosil bo'lgan tutamni kesilgan joyini ipak ip bilan kaptar patiga kirgizib boglaganlar. Tutamni dastaga boglashdan oldin kaptar pati ho'llangan, pat dum tomonidan olingan bo'lib, eng uzuni tanlangan. Lekin, mo'yqalam tayyorlashning boshqa yollari xam bulgan. Sodiqbek Afshar o'zinig "Rangtasvir haqida traktat" risolasida mo'yqalam tolasini olmaxon dumining yomshoq tolasidan olingan va dasta sifatida kaptarning patiga nisbatan uzunroq goz patini olishni tavsiya etadi.

2.2 Miniatyurada rang bilan ishlash texnologiyasi

Bo'yovchi materiallar tuxumli, elemli va lakli asosida bo'yoqlarni tashkil etadi. Ularning turli hisobotlarda tayorlanishi minatyura uchun asos, gurunt sifatida, ayniqsa lakli rangtasvir uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lum bo'lgan Sodiqbek Afshar o'zining "Jivopi haqida traktat" risolasida quydagicha ko'rsatma beradi: .../hammasidan oldin/ sen bilishing kerakki, grunt-bu elimlash, tushun: /uning tarkibi/: o'simlikla va baliq elim, uzumdan qilingan murabbo Elimlangandan so'ng bu san'atda, va sening vositalaring: qo'rgoshinli oq belila va lak. Qo'rgoshin belila bilan ishning asosini toki ko'rinmaguncha yopishing shart.

Lekin har bir qatlami alohida quritilgan va yaltiratilgan, Lak qo'l kafti bilan yupqa qilib surtilgan.

Bo'yovchi materiallar sifatida tabiiy va suniy pigmentlar olingan. Ular asosida elemli, tuxumli va lakli ranglar tayorlangan. Boglovchi modda sifatida baliq elimi, tuxum oqi va sandal (daraxt) laki xizmat qilgan, ko'pincha kvarst va kuporos tuxum oqiga qo'shib ishlatilgan. Pegment va tuxumli asos turli nisbatlarda qo'shilgan. Xosil bo'lgan rang temperaga o'xshab suv bilan qo'shib ishlangan va quritilgandan so'ng yuvilganda ham rangi ketmagan. Tuxum oqi qo'shilgan ranglar yorqin va shaffof bo'lgan, faqat tuxum sarigi qo'shilgan ranglar emalga o'xshash bo'lgan. Keencharoq boglovchi modda sifatida elim qullanila boshlangan, bazi vaqtlarda uzum shirasi va qiyomi qo'shilgan, o'rta asirlar pedagogi va rassomi Sodiqbek Afsharning risolasida qo'rgoshinli belila, surik, yar-mediya, yashil, kinovar, to'q qizil, yoqut rubin, lak elimli aralashmalar va xokazolarda, sostavlarni tayorlash nisbatlari xaqida maslaxatlar berilgan. Ranglarni tayorlash texnologiyasi rus va garbi evropalik rassomlarnikiga o'xshadi: bo'yovchi mineralli tosh havonchada unday maydalaganlar, elaganlar va boglovchi moddabilan qo'shganlar. Keen aralashmani, diqat bilan aralashtirganlar. Elimli bo'yoqlar o'zining texnologiyasiga ega

bo'lgan. Miniatyurada odatda **baliq elimi ishlatilgan.** Baliq elimi bo'yoq tayorlashdan tashqari asosga tilla yoki kumush bo'laklarini o'rnatish uchun xam xizmat qilgan. Bu elim turli navdagi baliq ichagi, terisi va suyaklaridan olingan. U o'zini elastikligi, o'zining rangini o'zgartirmasligi bilan boglovchi modda sifatida rangtasvir uchun qulay bo'lgan. Elimli bo'yoqlar tayorlash quydagicha bo'lgan: suv qushilgan miniral rang aralashmasiga elim qo'shiladi, lekin buda chegarani sezish kerak ,agar elimi kam bo'lsa rang chidamsiz, tez uchadigan , quriganda rang o'zgaradigan (guashdek) bo'ladi. Elim ko'payib ketsa ishlash qiyinlashadi va rang to'planib qoladi. O'z nisbatida qo'shilgan rang to'liq qalin qoplab baxmalsimon ton beradi va tashqi ta'sirga chidamli bo'ladi.

III. Miniatyura san'atining izohli lugati

“Tayanch” so'z va iboralar

A

Abdulxay – XV asrda yashab ijod etgan Bogdodlik musavvir. 1393 yilda Amir Temur uni Samarqandga chaqirib olgan. Uning “Jangmanzarasi”, “O’rdak” kabi miniatyuralari bizning davrimizga etib kelgan (ishlar Berlindagi “Saroy” albomida saqlanadi).

Abdalbek – oxirgi Savafiylar hukmdori Nodirshoh (1736-1747) davrida Isfaxonda yashagan musavvir. U mashhur musavvir Ali Qulibek Jabbardor o’gli bo’lib, bosh rassomlik (naqqoshboshi) darajasiga ko’tarilgan.

Abdullo Musavvir Xurosoniy – XVI asrning ikkinchi yarmida yashagan miniatyurachi musavvir. San’at sirlarini Mahmud Muzahhib va Shayx Sa’diy Mahmuddan o’rgangan. Musavvirning Sa’diy “Guliston” asariga ishlangan qator miniatyuralari mavjud. “Uchrashuv”, “Sevishganlar”, “Bogda musiqa asbobi bilan turgan o’smir” kabi miniatyuralar muallifi.

Avaz Muhammad – Abdulazizxon hukmronligi davrida Buxoroda ijod etgan musavvir. 1668-1671 yillar davomida Nizomiyning “Hamsa”siga miniatyuralar ishlagan. Uning tasvirlarida hind uslubi an’analar saqlangan.

Alibek Qulibek Jabbor - kelib chiqishi evropalik bo’lib, islomni qabul qilgan. XVIII asr ikkinchi yarmida yashagan. Isfaxon maktabi musavviri. U shoh Sulaymon (1666-1694) hukmronligi davrida saroyda ishlagan. “Mirzo Jalol portreti”, “Otliq” kabi miniatyuralari bilan nom qozongan.

Ahmad Donish (1827-1897) – tojik va o’zbek xalqlarining mutaffakkiri, yozuvchi va astranom. U musavvirlik bilan ham shugullangan. Uning esdaliklarida insoniylik qiyofasini yo’qotgan bangining hajviy rasmi, xotingqizlarning o’qitilishi tasvirlangan “maktab” nomli asari bor. “majnunSahroda” nomli ikki miniatyura ham Donish mo’yqalamiga mansub.

Ahmad Donishning 1880 yil ko'chirilgan "Bedil va Donish" miniatyurasida Hind shoiri va faylasufi Bedil va Donishlarning suhbatini tasvirlangan Unda Ahmad Donish Bedil suratini chizmoqda.

Axmarov Chingiz Abduraxmonovich – 1912 yilda tugilgan. O'zbekiston xalq rassomi Perm tasviriy san'at o'quv yurti va V.Surikov nomidagi Moskva Davlat badiiy institutini tugatgan. Sobiq SSSR Davlat mukofoti (1947) va Hamza nomidagi Respublika mukofoti (1968) laureati.

Abr (forsa-bulut) – bezakning bir turi.

Abri Bahor – (fors tilida "Bahar buluti") kitobat san'atining o'ziga xos bir sohasi. Arab olamida esa bu qogoz "varaq ulgmo'"jiza" (tomirli qogoz ma'nosida) Evropada "Marmar qogoz" yoki "Olicha qogoz" deb yuritiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, uning als vatani qadimiy Muvarounnahr, jumladan Buxoro shahri hisoblanadi. So'ngra bu san'at "Ipak yo'li" orqali avval Eronga, keyin Turkiyaga, undan esa Evropa mamlakatlariga tarqalgan. "Abri bahoriy" qogozni qadimiy usul bilan yaratish jarayoni, hozirgi zamon tasviriy san'atdagi estamt usuliga o'xshab ketadi, lekin bajarilishiga ko'ra undan farq qiladi. Bu qogoz asosan muqovaning ichki (forzasti) uchun ishlatiladi. Uning "Bulbul uyasi", "Charxifalak", "Chechakli abr", "Sunbulli abr", "Lolai abr" singari turli bor, lekin ular mazmunan bevosita bahor bilan aloqador.

Abris – (nemischa abriß – chiziq, xomaki rasm)

Ajdar – ogzidan o't purkovchi qanotli ilon. O'rta asrlarda bu yomonlik timsoli sifatida talqin qilingan.

Artang (arjang) – 1. Tasviriy san'at namunalari yigilgan kitob

2. Moniy "naqqosh" ustasi yoki rasmlar galereyasi

Afshar – qogoz atrofini zarhal rang bilan bezash.

Afshangar – qogozga zarhal bilan ishlovchi musavvir

Aks – 1. Siluet, 2. Aks ta'sir.

Arab miniatyurasini mutaxassislar yana o'z ichida uchta mintaqaviy badiiy markazga ajratadilar. Bular Fotimidlar sulolasi davri (X-XII asrlar), Suriya (XIII

asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bogdod) miniatyura maktablari. Markazlari Mosul, Bogdod va Vositda bo'lgan. Arab kitob bezakchiligining gullab yashnash davrini Iroq maktabi miniatyurachiligi tashkil etadi. 1224 yilda Bogdodda "Farmakalogiya" asariga xattotlik va musavvirlikni Abdallah ibn Fadl ishlagan deb hisoblashadi. Al-Haririyning "maqom" asariga ham qator miniatyuralar ishlangan.

Anqo – go'zal, noyob afsonaviy qush. Afrosiyob devoriy bezaklarida tumshugida yaxshilik urugini sochayotgan anqo qushi tasviri uchraydi.

Asal – bo'yoqqa qo'shiluvchi modda. U tasvirda ranglarni yaltiroq va silliq chiqishini ta'minlaydi.

Axta – tasvirni tushintirish uchun tayyorlangan yupqa qogoz.

Asl nusxa – miniatyuraning muvavvir bajargan va yagona nusxasi.

Ashtar – grunt singari turlari bor, lekin ular mazmunan bevosita bahor aloqador.

Baliq elimi – rang qoraymasligi va elastikligini yo'qotmasligi uchun ishlatiladigan elim turi.

Bo'yoq – maydalangan mineral yoki organik pigmentlarning alifmoy, lok, suv va boshqa ashyolar bilan boglovchilar qorishmasi. Badiiy bo'yoqlar akvarel, guash, temperadan iborat bo'lib, ularda nur ta'siriga chidamli pigmentlar mavjud. Qogoz, karton va yogoch buyumlarni bo'yash uchun ishlatiladi.

Bo'yoqxona yoki rangvorxona, rangrezxona deb ham yuritiladi. Ustalar ishlaydigan va bo'yoq xumlar ko'milgan maxsus xona.

Bo'yoqli o'simliklar – tarkibida bo'yoq moddasi bor o'simliklar. O'zbekistonda ruyan, o'sma, isiriq, anordan qizil bo'yoq, yongoq, karmakdan jigar va qora bo'yoq, isfarak, sutlama, maxsar, za'far, tut, olmalardan – sariq rang; gulxaridan ko'k va binafsha bo'yoqlari olinadi.

Bogdodiy – Bogdodda ishlab chiqarilgan qogoz nomi

Billur tuxum – qogozni yaltirashi uchun ishlov beriladigan predmet.

Buxoroi – qogoz nomi

“Boburnoma” – miniatyura to’plami Zahiriddin muhammad Boburning “Boburnoma” ensiklopedik asariga ishlangan. Britaniya muzeyidagi “Boburnoma” qo’lyozmasida 96 miniatyura bor. Miniaturalar o’lchami 15,5X28 sm hamma rasmlar va qo’lyozma tekst turli rangdagi siyoh va oltin chiziqli jadvallar ichiga olingan. 62 miniatyura esa tilla suvi bilan ishlangan naqshli rasmlarga olingan. “Boburnoma” rasmlarini ishlashda Akbar saroyidagi 41 ta musavvirlardan 41 ishtirok etgan. Ular orasida Kesu Kujaroti, Ras, Daxniroj, sangar Kujaroti, Sorun, Tare, Baxvoniy, shuningdek O’rta Osiyo va eronlik Ustod Mansur, Ibrohim Naqqosh, Abdulloh, Farruhbek, jamshid, Ibrohim Qahhor va boshqalar ajralib turadi. Miniaturalar mavzusi – 15 ta miniatyura tarixiy voqealar, tumush manzaralari – 13 miniatyura, harbiy lavhalar – 21 miniatyura, ov manzaralari 6 miniatyura, ziyofat – 7 miniatyura, hayvonot dinyosi – 5 miniatyura, 12 miniatyura, dengiz hayvonlari – 4 miniatyura, o’simliklar 11 – miniatyurada tasvirlangan.

Bolaliktepa qasri (Surxandaryo 5g6 a) – mehmonxonasi to’rt devorida ishlangan devoriy rasmlarda saroy bazmi tasvirlangan.

Boburiylar davri miniatyura maktabi – XVII asr Hindistonda tashkil topgan Bobur imperiyasi bilan bogliq bo’lgan mugullar va rajputlar maktablari.

XVII asrga kelib Boburiylar miniatyurasi o’z uslubiga ega bo’lgan. Uning gullabgyashnash davri 16 asrning ikkinchi yarmi va 17 asrning birinchi yarmida Akbarshoh (1556-1605), Jahongir (1605-1627) va Shoh Jahon (1628-1658) lar hukmronligi davri byuoshida, Shoh Jahonning o’gli Avrangzeb hukmronlik qilgan davr (1659-1707) yillarda miniatyura maktabi o’z faoliyatini to’xtatadi.

Boburiylar davri miniatyurasi boshlanishi bevosita O’rta Osiyo va eron miniatyura san’ati bilan bogliq. 17 asr boshida bu maktab uchun asosiy xarakterli xususyaitlar: rang echimi xarakteri o’zgarib, vazminlashib borishi: kiyim, jihozlar, tevarakgatrof ko’rinishlari, qurilish va me’morchilik bezagi mahalliydashib borishi bilan; garbiy Evropa rang tasviri ostida odamni tasvirlashda psixologik xususiyatlarni yuzaga chiqishi bilan muhim; inson

xarakteri va ichki ruhiy dunyosini tasvirlashga bo'lgan qiziqish oshishi bilan xarakterlanadi.

Buxoro miniatyura maktabi – Buxoro miniatyurasi o'z kompozitsion tuzilishi, rang tanlanishi, qalamtasviri va h.k. bilan bevosita so'gd devoriy rang tasviri bilan bogliqdir. (Afrosiyob VIII asr – Varaxsho VII asr)

XV- XVII asrlari Buxoro miniatyura maktabi uchun yaqin va O'rta sharq mamlakatlari kabi Uygonish dari bo'lib hisoblanadi. Buxoro miniatyura maktabi Sheroz, Hirot, tabriz, Isfaxon, Kazvin, Samarqand kabi miniatyura maktablaridek dunyo madaniyati munosib o'rin tutadi. Toshkent sharqshunoslik institutit arxividagi XIV asrning oxiri XV asrningboshlarida yozilgan Nizom Rizolasida 12 mashhur usta musavvir nomlari ichida Buxorolik usta Ubayd nomi ham tilga olingan (1950 –musavvir ichida). Ma'lumki Sharqning “Moniy Soniy” rafaeli – Kamoliddin Behzodning ustози Pir said ahmad Bogishamoliy bo'lmagani, uning ustози esa “Umdat ul-musavvir” Jahongir Bahoriy hisoblanadi. Bular esa Buxoro miniatyura maktabining tashkil topishi va yuksalishiga ta'sir etganini ko'rsatadi.

XVI-XVII asrlar Buxoro miniatyura maktabi o'zining gullab-yashnash davrini boshdan kechirgan bu davrda faoliyat ko'rsatgan qator Abdulla mahmud Muzahhib, Muhammad buxoriy, Muhammad Muqim, Mulla Behzod, Avaz Muhammad, Muhammad Amin kabi musavvirlarni misol qilib keltirish mumkin. Muhammad Buxoriy (XVII asr) Behzod va muhammad muzaxxib an'analarini davom ettirib “Yusuf va Zulayxo” dostoniga qator rasmlar chizgan. Mahmud Muzahhib (Shayxzoda Mahmud) bevosita Behzod va Oga Mirakdan taxsil olgan.

Badiiy – yuksak did va mahorat bilan bajarilgan tasvir.

Bedizchi – toshtarosh usta, rassom, naqqosh

Burk – bosh kiyim

Bayyaz – 1. oq rang; 2. Oq fon bo'lagi

Bosma – indigo, ko'k rang

Bo'sh – 1. Fon; 2. Rangtasvir asosi; qoralama

Bobo naqqosh – o'zbek musavviri, sulton Boyazd II davrida Turkiyada ishlab, turk miniatyura maktabiga asos solgan.

V

Varaxsho – Buxoro viloyatida topilgan qadimgi qal'a xarobasi. Arxeologik qazishmalar natijasida saroyda devoriy rasmlar ham topilgan. Varaxsho devoriy rasmlari 5g7 asrlardagi O'zbekiston monumental san'atning asosiy yodgorligidir. Saroyning Qizil xona devorlaridagi rasmlar bo'yoqlari quyuq. Ular dastlab qizgish – kul rang bo'yoq bilan chizilgan, uning ustida qizil rang surtilib, mo'yqalam va qamish qalam bilan ishlangan. So'ng ular ustidan sariq bo'yoq berilgan. Shu yo'l bilan rasmlar mukammallashtirilgan. Rasmlarda soya yo'q. Xonaning pastki qismila yirtqich hayvonlar tasvirlangan. Janubiy devor o'rtasida oyoqlari orasiga qilich qistirgan podshoh tasvirlangan. Podshoh nafis mato qoplangan va qanotli tuya tasviri tushintirilgan oltin taxtda o'tiribdi. Pastroqda rasmda podshoh xotini bilan ibodat qilmoqda.

Garbiy devorda jang mavzusi (Sovut, dubulga, kiygan, qo'llarida nayza va qalqon ushlagan suvoriylar, sharqiy devorda esa qamishzor tasvirlangan manzarasi).

G

Galereya – (franstiya-galerie) – 2 O'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklar. Keyinroq bu nom muzeylarda ham ishlatila boshlangan.

Grunt – tasviriyy san'at asarlarini ishlashdan oldin surtiladigan asosni hosil qilish uchun ishlatiladigan bo'yoq qatlami.

Grizayl – (franst. Grisaille? Gris- kulrang suzi) bir rang bilan, ko'pincha kulrangda ishlangan rasm.

Girift – o – gir – yovvoyi hayvonlarni ushlash.

Guash – (franst. Douache ital. Guazzo – suv bo'yogi) elim, rang kukuni va suv aralashtirib ishlatiladigan rassomlik material.

Garmoniya – ranglarning uygunligi

D

Devoriy rassomlik – bino devori, shipi, gumbazi ustunlari suvogiga ishlangan mavzuli rasmlar. Markaziy Osiyoda ham eng qadimgi davrlarda Varaxsha (Buxoro) saroylari – VII a, Bolalik tepa (Surxandaryo) 5-6a. Afrosiyobdan devoriy rasmlartopilgan. Ular suvda qorilgan bo'yoqlar aralashmasi bilan nam yoki quruq suvoq ustidan ishlanadi.

Damshuy – mo'yqalam uchi bilan ishlash

Daraxt sozi – manzara, daraxtlar tasviri

Danshuy – 1. mayda mo'yqalam bilan detallarni ishlashi;

2. Tus munosabatalarini berish

Devon – (fors). Sharq adabiyotida she'riy to'plamlar nomi. Devonlar xattotlar tomonidan ko'chirilgan, musavvir, naqqoshlar tomonidan bezatilgan.

Devon – hukumat idorasi, sud mahkamasi

Do'st muhammad (vafoti 1550 yil) – O'rta asrlarda Sharqning taniqli yozuv ustasi (xattot) va musavviri Do'st muhammad ibn Sulaymon Hirotda tugilgan. U hattotlik san'atini mashhur hirotlik hattot Sultonali Mashhadiyning shogirdi Qosim Shodishohdan o'rgangan. Ko'p yillar mobaynida Shahzoda Bahrommirzo saroyida qo'lyozma kutubxona ustaxonalarining boshligi bo'lib ishlagan. Shu bilan bir qator u Bahrom – Mirzoning akasi shoh Taxmaspda ham ishlagan va "Shoh xattoti" tituliga ega bo'lgan. 1544-1545 yillarda musavvir, 'xattotlar haqida risola yozgan.

J

Jilvir – yuzani silliqdash uchun ishlatiladigan qum qogoz

Junayd Bogdodiy – Iroq miniatyura maktabi vakili. 1396 yil Bogdodda xattot Mir Ali Tabriziy ko'chirgan Xo'ja Kirmoniy poemalariga miniatyuralar ishlagan.

Janavar sozi – 1. Hayvonlar tasviri; 2. Animalistik janr

Jadval – 1. Chiziq. 2. Miniatyura va matn atrofini bir necha nozik chiziqlar bilan ramka olinishi.

Jadvalkash – matn yoki rasm atrofini chizuvchi usta

Z

Zarafshon – Oltin suvi yoki changini sepuvchi, zar sochuvchi

Zargun – zarhal rang

Zar varag – 1. Shaffof qogoz; 2. Oltin varaq

Zan-gor – yashil rang

Za'faron – sargish

Zangori – moviy, yashil bilan ko'k o'rtasidagi rang

Zaboni – o'qituvchi tomonidan matnni ogzaki tushuntirilishi

Zastavka – kitobning boglanishi yoki bobi oldidan beriladigan rasm, naqsh, bezak.

Zarhal – oltin suvi yuritilgan pardozi

L

Lojuvard – ko'kish rang

Lavh – kitobni qo'yibqo'yib o'qish uchun yasalgan taglik

Lavvoh – jilo beruvchi, sarlavha va chiziqlarni chizuvchi

K

Kalligrafiya (yunon Kallos – chiroyli va ... grafiya – harflarni chiroyli va aniq qilib yozish san'ati. Arab yozuvida Kufiy, suls, tavke', riko', rayxoniy, nasx, ta'lik, nasta'lik kabi uslublar mavjud bo'lgan.

Kitobxona – qadimgi davrlarda shoh saroyida tashkil etilgan qo'lyozma kitoblar tayyorlash ustaxonasi.

Kompozistiya – (lat. Sonposito – tuzish ijod qilish) Fazodagi narsalarni asarda joylashtirilishi ularni o'zaro munosabati, rang berish, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ko'rsatish, yoruglik va soya ifodasi, nisbat, simmetriya qonunlariga e'tibor berish – kompozistiyaning asosiy vazifasidir.

Kalka – yupqa shaffof qooz. Qadimda ohu terisidan foydalanilgan uni usta zargarlar tayyorlagan.

Kashmiriy – qogoz nomi

Kuyi naqqosh – Ulugbek davrida Samarqandda tashkil topgan musavvirlar ko'chasi.

Kershan – belila, oq rang

Qalam giri – chiziqli rasm, chegara

Quvvati dast – 1. Qo'l chidamliligi

2. Ko'z aniqligi

3. tasvirda nisbatlar ishonchliligi

I

Isfaxon miniatyura maktabi – XVII Eron rangtasviriy san'ati rivojlanayotgan maktab. Isfaxon shahri bu davrga kelib Savafiylar poytaxtiga aylanadi. O'ziga xos xususiyatlari: inson ichki dunyosi xarakteriga bo'lgan qiziqish asosida manzara elementlari bilan to'ldirilgan portret rang tasvirining kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Evropa rang tasviriga xos nur va soya, janrga xos ko'rinishlar, evropa kostyumidagi personajlar paydo bo'ladi. Musavvirlar Evropa rang tasviri namunalaridan nusxa ko'chirish paydo bo'lgan holda, o'zining milliy an'alarini saqlab qolindi. Bu davr Isfaxon miniatyura maktabi yirik vakillari musavvirlar Oga Rizo, Rizo Abbosiy, XVII asrning ikkinchi yarmida Ali Quli Jabbor va Italiyada ta'lim olgan Muhammad Zamonlarni aytish mumkin.

Isfaxoniy – qogoz nomi

M

Muhammad Murod Samarqandiy – (XVII asr) musavvir. Markaziy Osiyolik yirik musavvirlar qatori Hindistonga borib, Jahongir Mirzo saroyda ishlagan. Musavvir o'z davrida nozik va go'zal uslubda qator rasmlar bajargan.

Muhammad Muqim Samarqandiy – XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan musavvir, Xiva shohi Eshmuhammad uchun ko'chirilgan (1556-1557) “Shohnoma”ga qator miniatyuralar ishlangan. Shu bilan bir qatorda musavvir Muhammad salim bilan birgalikda Firdavsiy ishlarini bezatganlar. 1668-1671 yillar Avaz muhammad, muhammad Amin va Mulla Behzodlar bilan birgalikda Nizomiyning “Hamsa”sini (Chester Bitti kutubxonasi) bezatganlar. Ular ichida “Siyovushning olovda sinalishi” miniatyurasi alohida ajralib turadi.

Muhammad Nodir Samarqandiy – musavvir 1590 yilda Dehliga kelib, XVII asr o'rtalariga Akbarshoh, Shoh Jahongir va Shoh Jahon davrlarida ishlagan.

Muhammad Sulton – XVII asr oxiri Isfaxon miniatyurasi vakili. Uning “Erkak portreti”, “Qo'lida hasa ushlagan erkak” kabi ishlari ma'lum.

Mirzo Abul Hasanxon Gafforiy – XIX asr Eron miniatyurasi (Isfaxon) vakili. Musavvir Soniy ul-Mulk taxallusiga ega bo'lib, saroyning bosh rassomi – “naqqosh boshi” deyilgan. Soniy ul-Mulk Italiyada ta'lim olgan bo'lib, uning ijodida Evropa rang tasviri sezilib turadi.

Muhammad Sheroziy – XVI asr ikkinchi yarmida yashagan fors miniatyurachi musavviri. U Evropa rassomlari ishlaridan nusxa ko'chirgan.

Muhammad Zamon ibn Xodji Yusuf Kumi – XVII asr ikkinchi yarmida Isfaxon miniatyurasi vakili. Uning “Amur va Venera”, “Misrdan qaytish” kabi kartinalardan nusxa ko'chirmalari ma'lum.

Muhammad Chagri Muxassin (XVI asr) – Nizomiyning “Hamsa”siga Muhammad Muzaxxib bilan birga rasm ishlagan musavvir.

Muhammad Darvish – XVII asrda yashagan musavvir. 1618 yilda “zebo Zivar doston”iga (Britaniya muzeyi) “subbat-al-Abror” (Chester Bitti) qo’lyozmasi frontispisiga miniatyuralar ishlangan.

Mir Said Ali Tabriziy – Tabrizlik musavvir Behzodning shogirdi. Boburning o’gli Xumoyun 1550 yil musavvirni Hindistonga olib keladi. Mir said Ali Tabriziy Hind miniatyuralariga Temuriylar davri Hirot miniatyurasi an’alarini olib kiradi. Musavvir saroy kutubxonasi qoshidja Xumoyun tomonidan tashkil qilingan miniatyura san’atining yangi maktabiga, ya’ni Boburiylar miniatyura san’atiga asos solgan.

Muin Musavvir – mashhur isfaxonlik musavvir Rizo Abbosiyning shogirdi. Uning “Temurxon Turkman portreti” (1683-1684) nomli asari mashhur. Musavvir yuz yildan ortiq umr ko’rgan. U 1697-1698 yillar orasida vafot etgan.

Moniy ibn Fatak (216-176) – moniylik ta’limoti asoschisi: naqqosh va rassom. Turli rivoyatlarda Moniyning o’z davrida iste’dodli naqqosh, rassom sifatida tanilgani hikoya qilingan.

Mulla Behzod – Abdulazizxon davrida Buxoroda ijod etgan musavvir. Nizomiyning “Hamsa”siga qator miniatyuralar ishlagan.

Mirak Naqqosh (Sayid Mirak xoja Mirak deb ham atalgan) tugilgan yili noma’lum. Vafoti 1507 yil, naqqosh, mashhur musavvir Kamoliddin Behzodning ustosi.

Mahmud Muzahhib – Shayxzoda Mahmud (tugilgan yili noma’lum – 1565-1570 Buxoro) – naqqosh musavvir. Kamoloddin Behzod va Oga Mirak shogirdi. Husayn Boyqaro saroyda ishlagan. Uning mashhur shoir Alisher Navoiy portreti, Jomiyning “Tuhfat ul-axror” asariga bagishlangan ishlari, Nizomiyning 1537g1538 yillarda naqqosh Mir Ali ko’chirgan “Hamsa”sida uch miniatyurasi saqlangan. Musavvir ishlagan Alisher navoiy portreti uning yuksak mahoratidan darak beradi.

Muhammad Amin – Abdulazizxon hukmronligi davrida (1652) musavvir bo'lib, devoriy rasmlar ustasi sifatida tanilgan. Nizomiy “Hamsa”siga miniatyuralar ishlagan.

Muhammad Alibek – savafiy nodirshoh davrida (1736-1747) naqqoshboshilik (bosh rassom) darajasiga ko'tarilgan. Mashhur musavvir Ali Qulibek Jabbordor nabirasi, musavvir Abdalbek o'gli.

Muhammad Buxoriy (Muhammad Said binni Mirzo Buxoriy XVII asr) – Behzod Muhammad Muzahhib va Muhammad Murod Samarqandiy an'alarini davom ettirgan musavvir bo'lib hisoblanadi. Muhammad Buxoriy Durbekning “Yusuf va zulayxo” dostoniga qator miniatyuralar ishlagan.

Mashhad miniatyura maktabi – Eronda Savafiylar davrida tashkil topgan miniatyura maktabi. Bu maktab uchun xarakterli miniatyuralardan “Shoh ovi” va “Ovdagi dam olish vaqti”, nomli asarlar hisoblanadi. Miniatyura mashhur musavvir sulton Muhammad mo'yqalamiga mansub deb hisoblanadi. “dashtlik Asir”, “darvesh Shahzodaga to'pni uzatmoqda”, “Ziyorat” miniatyuralari ushbu davrlarda ishlangan. Kazvin miniatyurasi alohida xususiyatlari: inson qomatlari nisbatlari asliga yaqin, saqlangan va vazmin; manzarada tog'lar tasviri, mahorat bilan ishlangan daraxtlar, jingalksimon bulutlar va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Mojlis sozi – mavzuli ko'rinish

Majlis tasviri – janrli ko'rinish (saroy qabuli, adabiy hayot tasviri va h.z)

Musanna – 1. Nodir. 2. Nozik did bilan ishlangan

Manzara – manzara, landshaft

Mauze – 1. Syujet. 2. Rasm.

Matn – 1. Xolst; 2. matn

Muzaxxib – naqqosh, al beruvchi

Musavvir – 1. rassom; 2. Miniatyurachi

Murakka – 1. Xattotlik yozuvi nusxalari albomi; 2. Miniatyura san'atini o'qitish uchun namunalar ega bo'lgan maxsus albom.

Miniatyura – (lat minium – kinovar, qizil bo'yoq) – nafis ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari; qo'l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar, emal, guash, akvarel kabi bo'yoqlar bilan ishlangan kichik o'lchamli suratlar.

O'zbekistonda ham qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadamdan mavjud X-XI asrlarda rivoj topgan miniatyura san'ati XIV-XV Temuriylar davrida ancha rivojlanidi. Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, navoiy, Bobir kabi buyuk shoirlar bilan bir qatorda tarixiy asarlar ham bezatilgan.

Mo'yqalam – musavvirlikda bo'yoqni mato, qogoz, yogoch va boshqalarga tushirishda ishlatiladigan asosiy ish qurollaridan biri mo'yqalam hayvonlar junidan tayyorlanadi.

Mienschuy – mo'yqalam osti bilan ishlash

Muzaxxib – qogozga hal beruvchi

Muqova – qo'lyozma yoki kitoblarning ustki qismi. Qalin bezaklar tagida bo'ladi.

N

Nigor – 1. San'at. 2. Kartina. 3. Ijod. 4. Go'zal

Nilgobgindigo – To'q ko'k rang

Naqqosh – 1. Musavvir naqqosh; 2. Rang tasvirchi.

Nisbat – nisbatlar munosabati

Nam-gir – to'yingan

Nireng – rangsiz chiziqli ras

Naqqosh – musavvirni ham anglatadi. Farqi naqqosh keng ma'noda qo'llanilgan san'atkor mazmunida. Naqqosh, bu musavvir g miniatyurachi naqsh san'ati bilan shugullanuvchi ustani anglatadi. Musavvir so'zi esa faqat rangtasvir ustalarini nazarda tutgan.

Nograpushi – kumush bilan qoplash

Nilufar – qadimgi nakshli motiv

Nilob – och zangori rang

Nofarmon – binafsha

Nigoriston – suratxona, muzey

Nireng – siyohlar bilan atroflari chizilgan rasm. Shundan so'ng bu rasm kleyster aralashmasi va tuxim oqi bilan silliqlashgan va jilo berilgan yupqa grunt.

O

Ota Mirak Isfoxoniy – (XVI asr) Tabriz miniatyura maktabi vakili, Kamoliddin Behzod shogirdi – naqqosh va musavvir Nizomiyni "Hamsa"ga qator miniatyuralar ishlagan.

Ob rang – 1. Akvalrel; 2. Akvarel bo'yogi, suv bo'yoq.

Obri – Qogozga badiiy ishlov berish turi (mas. Marmarga o'xshatish va h.k.)

Ostar-qori – guruntlash, ishni asosini bo'yash

P

Palex miniatyurasi – Ivanova viloyati Paxel posyolkasida tashkil topgan uslub. Palexda miniatyura juda ham yuqori rivojlangan. Paxel miniatyurasi, asosan pape-masheda tayyorlanib loklangan turli badiiy buyumlarga ishlanadi. Tasvir foni qora, zarhal va sariq ranglarda naqshlar ishlanadi. Mavzusi – xalq ogzaki ijodi, tarixiy, badiiy asarlar syujeti asosida tanlanadi.

Panjakent – Tojikiston Respublikasida joylashgan, arxeologik qazishmalar asosida juda ko'p noyob ishlar topilgan shahar. Aniqsa, devorlarda ishlangan rasmlarda – shohlar bazmi, diniy marosimlar, ov, jang va mifologik tasvirlar ishlangan.

Parda-pardoz – yuzaga tasvirni kalka shaffof qogoz yordamida tushirish)

Parda – 1.Kalka; 2.Yupqa teri; 3. Nusxa ko'chirivchi qogoz.

Pir – musavvirlar stexi boshligi

Pape-mashe (fran. Papier mache – ezilgan qogoz) – tuyib ezilgan qogoz, kraxmal, gips qo'shib hosil qilinadigan material qadimda va hozirgi davrda ham pape-mashe usulida badiiy buyumlar (quticha, qalamdon va h.z) yasalib miniatyuralar mshlanmoqda.

Pergament – 1. Maxsus ishlov berilgan mol terisi; Qadimda xat yozish uchun ishlatilgan. 2. Shunday materialga yozilgan hujjat

Pigment – bo'yoq tayyorlashda qo'llaniladigan turli rangdagi mayin kukunlar.

Pistoqi – och yashil rang

Papirus – qadimda yozish va chizish uchun ishlatiladigan daraxt

R

Rizo Abbosiy – Savafiylar davri Isfaxon miniatyura maktabi vakili. Shoh Abbos I davrida saroy rassomi bo'lgan, alohida varaklarda ishlagan miniatyuralari nafis chizgilar, go'zal, tiniqligi bilan ajralib turadi. U zamondoshlarning ham portretlarini o'ziga qarab ishlagan. Uning “Chol” (1614), “Cho'pon”, “Yigit” kabi portretlari hozirgi davrda Sharq xalqlari san'ati davlat muzeyida, Sankt-Peterbugdagi Saltikov-Shcherdin nomidagi Davlat kutubxonasi va O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. San'atshunoslar tadqiqoti bo'yicha aka –Rizo kashaniy deb nomlangan miniatyuralar ham Rizo Abbosiynikidir.

Rotubati xat – yozuv tozaligi, sof yozilgani.

Ravesh – 1. Uslub. 2. Ish uslubi

Rukesh – tiniq, ranglar bilan qoplash

Range puxta – sun'iy bo'yovchi rang

Range rougan – lokli rang (lok)

Range-udi – kulrang

Range fistaki – pistoqi rang

Range laki – lokli bo'yoq

Range la'li – qirmizi (rubin) rang

Range-rez – musavvir, rang tasvirchi

Rang-navis – rang tasvirchi

Rang-e mizi – 1. Ranglar uygunligi. 2. Rang tasvir

Rang-rezi – rangtasvir

Rang-i Zinda – jonli yozuv yoki ko'zni quvontiruvchi 2. Yashil rang

Rassom – rasm ustasi, musavvir, naqqosh

Ritm – ma'lum masofalarda takrorlanuvchi tasvir. Kompozitsiyada tashkil etuvchi va estetik rolni bajaradi. Uning haqiqatligi kompozitsiya qonunlariga tush va rangli kontrastga asoslanadi; 2. Miniaturada takrorlanishga asoslanadi. Chiziq rangli siluet, yoruglik doglari, turli xil o'lchamdagi va shakldagi tekisliklar, ma'lum bir davrdan so'ng to'ldirilgan doir.

Rangsoz – 1. Rassom, musavvir. 2. Rang-barang bo'yoqlarda ishlangan tasvir.

S

Sulton al-Mashhadiy (1437 Mashhad – 1520) – o'zbek xattoti va shoiri. Xattotlikda maktab yaratib “Kitoblar qiblasini” va “Xattotlar sultoni” unvonlariga sazovor bo'lgan. Hirot xattotlariga bosh bo'lib musavvir, muzaxhib, lavvoh va saxxoblar bilan birgalikda qo'lyozma va kitobat ishini san'at darajasiga ko'targan. Behzod va boshqa ko'pgina musavvirlar ko'chirgan kitoblarga miniatyuralar ishlagan. Sultonali Mashhadiy xattotlik san'ati haqida “Kavonid hutut” (“Xat qoidalarini” nomli she'riy risola yaratgan 1519)

Sulton Muhammad Tabriziy – (1470 yillar oxiri – Tabriz – 1555) miniatyurachi musavvir. Oga Mirak shogirdi. Tabriz miniatyura maktabi yirik vakili. Hofiz devoniga, Nizomiyning Hamsa'siga miniatyuralar chizgan. Musavvir miniatyuralari ko'p qomatli, manzaralarga boy bo'lgan.

Sulton Muhammad – shoh Taxmasb I (1524-1576) davrida keng tanilgan musavvir. Qozi Ahmad yozishiga Behzod Tabrizga kelganiga qadar kichik Taxmasbni – rang tasviriga o'rgangan

Sulton Ali Bavardiy – Turkmaniston xududida uncha katta bo'lmagan shaharchada ijod etgan musavvir, naqqosh. 1446-1447 yillarda Nizomiyni "Hamsa"ga ishlangan miniatyuralar muallifi.

Said Ahmad Naqqosh – Shohruh saroyida ishlagan musavvir. Do'st Muhammad o'z risolasida "... Boysunqur o'zi bilan Tabrizga ustod Sayidin Ahmad naqqoshni ... olib keldi" deb yozadi.

Sadriddin Pochchaev – Buxoro viloyati, Romitan tumani, Chorshanba qishlogida dehqon oilasida 1870 yilda tugilgan. 1915-1917 yillarda Ark qo'rgonida zargar usta bo'lgan. 1930-1940 yillarda Molotov nomidagi artelda zargar va zarbocha bo'lgan. 1948 yilda olamdan o'tgan. 1920-1930 yillarda miniatyura sohasida ham bir qator ishlar bajargan A.Jomiyning 1483 yilda bitilgan "Yusuf va Zulayxo" dostoniga ishlangan miniatyuralari Buxoro muzey qo'riqxonasida saqlanmoqda.

Said Ahmad Bogishamoliiy – 15 asrda Amir Temur saroyda xizmat qilgan musavvir.

Sodiqbek Afshar – (1533-1612/1616 yilda Tabrizda tugilgan) Yoshlik chogidan san'atga qiziqib tabrizdi mashhur musavvir Muzaffar Alidan rang tasvir sirlarini o'rgangan. Tarixchiiskandar Munshiyning yozib qoldirishicha "Soch qalinligidagi mo'yqalam bilan minglab hayron qolarli portretlar yaratgan".

Sur'at – 1. Portret; 2. Tasvir.

Sur'ati aroyi – tasvir

Sur'at-e xal – maishiy janr

Sur'at sozi – portret san'ati

Sur'at gar – tasvirlash san'ati

Sur'at-e hasti – borliq tasviri

Saroidj – surik – qizil jigar rang

Serishom – baliq elimi

Sefidab – qo'rgoshinli oq rang

Siyox – 1. Siyoh rang; 2. tush

Sofi – yozuv tozaligi, rang aniqligi

Savod – 1. Bilim darajasi; 2. Siyoh; 3. Ko'z qorachigi\

Siyoh qalam – tush qalamda chizilgan rasm

Siyoh mashq – 1. Qoralama 2. Mashq

Sofi – xat – 1. Mukammal bo'lgan yozuv; 2. Rang tasvir uslubi

Samarqand miniatyura maktabi – XV-XVII asrlarda Samarqandda paydo bo'lgan miniatyura markazi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqandda Temur saroyida Bogdodlik mashhur usta Abdulxay shuhrat qozongan. Pir Ahmad Bogishamolliy ham ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan musavvir Mirzo Ulugbek davrida miniatyura san'ati yuksak rivojlangan. Samarqand musavvirlar ko'chasi “Quyi Naqqoshon” bo'lgan. Samarqand miniatyura maktabining o'ziga xos xususiyatlari: Xuroson va Movarounnahrning madaniy meroslarini umumiyligi; inson va tabiat uygunligi; Hirot maktabi o'ziga xos kompozistion vosita va usullari o'rnashishi, an'anaviylik va mumtoz yo'nalishda bo'lganligi bilan alohida ajralib turadi.

Sandarak – daraxt. Undan tayyorlangan lak oltin va kumush bilan ishlanganda grunt bo'lib xizmat qilgan.

Samoviy – osmon rang

Semurg – afsonaviy qush

Surat – rasm, tasvir

Surmarang – qoramtir

Sahhob – muqovasozlik, muqovasoz usta

Sayqalchi – buyum sirtiga jjilo beruvchi

Sardak – bo'yoq qorishmasi chiqindisi

Siyohqalam – nozik mo'yqalam

Sir – rang, bo'yoq, toshga surtiladigan bo'yoq

Sirchi – naqqosh usta, sirlovchi usta

Sultoniyy – samarqandda temuriylar davrida ishlab chiqarilgan oliy navli qogoz nomi

Siyoh – tarkibida temir moddasi bo'lgan, yongoqdan hamda qurumdan tayyorlangan qora rang

T

Tazhib – naqshlarni zarhal bilan ishlash

Tazhibli hoshiya – zarhal hoshiya naqsh

Tus – rangni bir-biridan farqlovchi belgi

Toq surat – yakka portret, tasvir

Temsal – 1. Qomat; 2. Haykaltaroshlik

Temsal-gar – portret ustasi, haykaltarosh

Tarbuzi – tarvuz yuzasi rang (yashil rang)

Tousi – 1. Tovus pati rangi; 2. Badiiy uslub turi

Tilla-poshi – zarhallash

Tilla-qori – zarhal bilan ishlash

Tilla – puxta eritilgan oltin

Tilla-xom – xom ashyo, eritilgan oltin

Tarrox – chizuvchi, loyihalovchi

Tarroxi – 1. rasm san'ati, loyiha

Tarx – 1. Naqsh; 2. Loyiha; 3 Qoralama

Ta'lim-e zaboni – xattotlik va miniatyurada ogzaki o'rgatish uslubi

Ta'lim-e qalami – o'qitishda amaliy o'rgatish uslubi

Ta'lim-e nazariy – ma'lum bir metodologiyaga asoslangan nazariy o'qitish uslubi

Tabriz miniatyura maktabi – Eronning eng katta shaharlaridan birida tashkil topgan maktab, XIV asr Tabriz miniatyura maktabining xususiyatlari

miniatyuraga xitoy tasviriyl san'ati motivlari ijodiy kiritilishi; qahramonlarning tashqi ko'rinishi, holati va qiyofalar aniq va tevarak-atrof bilan bogliqligi va sheroz miniatyurasi ta'siri ostida bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Tabriz miniatyura maktabi uchun gullagan davr XV-XVI asr savafiylar davri bo'lgan. Bunga Hirotdan kelgan Kamoliddin behzod, Qosim Alilarning kelishi, sulton Muhammad va uning o'g'itllari Mirza Ali va Muhammad Alilar ishlanganligi yuksalishga olib kelgan.

Bu davr miniatyuralari asosiy xususiyatlari: adabiy mazmun bilan badiiy shakllar birligi, ranglar uyg'unligi, obrazlar emostionalligi, manzara va arxitekturani to'la ifodasi, kiyim va qiyofalar naturaga yaqinligi, miniatyura kompozistiyasi va qonunlari izidan borishi bilan xarakterlanadi.

U

Ustod Gung (ya'ni tilsiz) musavvir – temuriylar davri miniatyura maktabining asoschisi.

Ustod Jahongir – Ustod Gungning shogirdi, “umdatul Musavvirin” (“musavvirlar peshvosi”) nomi bilan mashhur buxorolik usta.

Unvon – qo'lyozma bosh sarvaragi

Usta – 1. usta; 2. O'qituvchi, murabbiy

Ustav – turli xil xunarmandchilik ustaxonalarining ustalar amal qilishi kerak bo'lgan majburiyatlar to'plami. Jumladan, bizga Temuriylar davridan “rang tasvir bo'yicha ustalar stexining maqomi” etib kelgan. Ustavda Olloh-Taologa hamdu-sanolardan so'ng, ushbu san'atning shu davrgacha mashhur bo'lgan 1950 musavviri ichidan eng ko'zga ko'ringan 12 tasi nomi keltirilgan.

Ustod – ustoz

Uzum shirasi – rang tayyorlash uchun ishlatiladigan boglovchi madda

F

Farhod – Abdulazizxon II (1645-1680) davrida ishlangan musavvir. 1649 yilda “Bo’ston” (Chester Bitti kutubxonasi) sahifalari atroflariga qator miniatyuralar ishlangan.

Farangi – 1. Evropacha (yuz, kiyim va x.z.); 2. naqsh nomi.

Farangi – evropacha naqsh turi

Freska – bunda rasm suvda qorilgan bo’yoqlar bilan chiziladi.

Frontispis – kitobning asosiy mazmunini ifodalaydigan va titul beti yoniga joylashtiriladigan rasm.

X

Xalil Musavvir – Shohruh saroyda ishlangan musavvir. Ikkinchi – Moniy deb tan olingan Savafiy Bahrom mirzo kutubxona boshligi bo’lgan davrda ishlagan.

“Hamsa” miniatyuralari – Nizomiy ganjaviy, Xisrav dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning “Hamsa” lariga chizilgan miniatyuralar. Dehlaviy, Jomiy, Nizomiy “Xamsa” lariga ishlangan miniatyuralarda ishqiy lavhalar, jang manzaralari ko’proq ko’zga tashlanadi.

Navoiy “Hamsa”siga kamoliddin Behzod, sulton Ali Mashhadiy, Eriy Muzaxxib va boshqa bir qator musavvir va naqqoshlar tasvirlar ishlangan.

Xirot miniatyura maktabi – Afgoniston (hozirgi) tashkil topgan miniatyura maktabi. Hirot miniatyura maktabi uchun Temuriylar davri yuksalish bosqichi bo’lib hisoblanadi. Bu davrda hirot Samarqanddan so’ng ikkinchi poytaxtga aylanadi.

Kamolliddin Behzod ham – Hirotlik musavvir bo’lib hisoblanadi. U miniatyura rangtasirida o’chmas iz qoldirgan. Hirot miniatyura maktabi tabriz, buxoro, Samarqand, Dehli va Agra rangtasvir maktablari shakllanishi va rivojlanishga katta ijobiy ta’sir ko’rsatgan. Bu davr miniatyura maktabi rivojiga ulug’ vazir o’zbek adabiyotining osochisi, shoir Alisher Navoiy katta ta’sir ko’rsatgan.

Xallekari – suyuq oltin yoki kumush qoplash

Hoshiya – tasvir cheti, zixri

Xovoncha – bo'yovchi minerallarni ezish uchun ishlatiladigan tosh idish.

Xushnavis – kotib, xattot

Xolmatov Niyozali – musavvir. “Er haqida qo'shiq”, “suv haqida qo'shiq”, “Halq teatri” va “Baxt haqida qo'shiq” kabi chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan miniatyura asarlarini yaratgan, moskvadagi “O'zbekiston” restoraniga bezak rasmlar chizgan. Alisher Navoiyning asarlariga ishlangan va bir qator zamonaviy mavzulardagi “Hosil bayrami”, “Surnaychi”, “Doira” kabi ishlari diqqatga sazovor.

Ch

Chehragushay – portretchi musavvir

Chehra-gushan – portret san'ati

Q

Qambarov Abduvosit – miniatyura an'analari asosida “Alisher Navoiyning “Fahod va Shirin” dostoniga rasmlar ishlagan

Qalamgiri – abris, chiziq, qalamda bajarilgan rasm

Qit'a – qogozga chiroyli qilib yozilgan bo'lib san'at asari sifatida devorning ko'rinarli joyiga osib qo'yiladi.

Qogozlik – toza loklangan yuzaki changdan saqlovchi vosita

Qogoz – miniatyura rangtasviri uchun ishlatiladigan asosiy ashyo qogoz Samarqandda, Bogdodda ishlab chiqarilgan.

Qogozrez – qogoz tayyorlovchi

Qalami – o'qituvchi tomonidan amaliy yordam ko'rsatish

Qalamgiri – mo'yqalamni toza suvga botirilgan holda tasvir chizib chiqiladi. Qurigandan so'ng qalamning izlari ustidan rasm qizil va qora siyohlar bilan chizib chiqiladi.

Kazvin miniatyura maktabi – 1548 yilda Savafiylar poytaxti Tabrizdan Kazvinga ko'chirilish sababli san'atkorlarning guruhi tomonidan tashkil topgan miatyura maktabi

Qosim Ali – XV asr oxiri Hirot miniatyura maktabi vakili Kamoliddin Behzodning shogirdi va o'rtogi. Tarixchilar fikricha, u ustozdan bu sohada qolishmagan, ularning ishlarini faqat rangtasvirning nozik bilimdonlarigina ajrata oladi. Musavvir haqida ma'lumotlar oz. Faqat Sulton Husayn Boyqaro saroyi kitobxonasida ishlagani va Behzod shogirdi bo'lganligi ma'lum.

Sh

Sheroz miniatyurasi – XIV asr oxirida Eron miniatyura san'atida paydo bo'lgan miniatyura maktabi. 1370 yilda “Shohnoma” asariga ishlangan miniatyuralar – Sheroz maktabining dastlabki taniqli namunasi hisoblanadi.

XV asrning birinchi yarmida Sherozda kitob san'ati yuqori darajaga ko'tarilgan 1410 va 1420 yillarda Fors she'riyati majmuasi” va 1425 yildagi “Shohnoma” manuskritlariga ishlangan tasvirlar qiziqarlidir. XV asr oxiriga kelib Sheroz miniatyura maktabi rivojlanishi oqsay boshladi. Sheroz miniatyura san'atining asosiy xususiyati kompozistiyalarda yuqori gorizont usuli ishlab chiqilishi; manzarani ifodalashga alohida e'tibor, ranglar jarangdorligi bilan ajralib turadi.

Shabeh kashi – portret janri

Shostman – yozuv uslubi ikki texnikani o'z ichiga oladi

Shost-o-shu – lessirovka yoki qatlamli yozuv, suv bo'yoq uslubi

Shafran – qogoznisariq rangga bo'yash uchun ishlatiladigan o'simlik

Sharof al-Husayni al Yaazdiy – kaxvin maktabi miniatyura vakili. (1594-1595 yillarda Orifiyning insholariga miniatyuralar badjargan

Shafiy abbosiy – XVII asr o’rtalarida Isfaxonda ijod qilgan miniatyurachi musavir. Musavvir – Savafiylar saroyida ishlagan bo’lib, qushlar tasvirlangan qator miniatyuralari ma’lum

G

Giyosiddin naqqosh – shohrux hukmronligi davrida Boysunqur tomonidan Xitoyda elchilar qatorida yuborilgan musavvir

H

Hunar – 1. San’at, badiiy yoki boshqa hunar

Hattot – xattot, badiiy yozuv ustasi

Hunarmand – o’z ishining ustasi

Hunarvar – 1. Musavvir; 2. Iste’dod sohibi

Hunarkash – xizmat ko’rgatgan san’atkor

Harakat-e xat – dinamika, harakat

Ya

Yak surat – birkishi tasviri

Yak-sar – qoralama

Yak-dast – to’litq, tekis

Yar-mednyak – yashil rang – sariq yashildan toki yashil ko’kning boy chamasi, okislangan mis rangi

Hozirgi davr miniatyurachi musavvirlar

Boltaev Toxir – miniatyurachi musavvir O’zbek xalq ogzaki ijodi asosida “Bunyod va Parizod”, “Go’ro’gli” va boshqa bir qator ogzaki ijod namunalariga miniatyuralar bajargan.

Komilov Gayrat – miniatyurachi musavvir uning Moskvadagi “O’zbekiston” restorani devorlariga qator nafis rasmlar, Alisher navoiy dostonlari asosida bajarilgan tasviriy ishlari diqqatga sazovor

Lugovskiy Valentin – Alisher navoiy asarlari mavzusida, Boburiylar sulolasi haqida qator miniatyuralar bajargan miniatyurachi musavvir

Muhammad Shomahmud – musavvir, o'zbek miniatyurasining qayta tiklanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. P.Benkov nomidagi rassomlar bilim yurtida tahsil olgan. Firdavsiyning “Shohnoma” asariga Mahmud Qoshgariyning “Devonu lugatit turk”, qadimgi Hind yodnomasi “Kalila va Dimna”, Alisher Navoiy asarlariga qator rasmlar bajargan.

Nazirov Xurshid – miniatyurachi musavvir Firdavsiyning “Shohnoma” asariga, hofiz Xorazmiyning “Visol” asariga, lutfiy gazallariga qator rasmlar ishlagan.

XULOSA

O'sib kelayotgan yosh avlodni estetika tarbiyasi va badiiy ta'limda jaxon madaniyati tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan nodir miniatyura san'atining imkoniyatlari beqiyos kattadir.

Jumladan har viloyatda san'at akademik litsteylarining ochilishi, badiiy akademiya rassomlik va dizayn instituti tashkil etilishi yorqin dalil bo'ladi. Men yuqorida ko'rsatib o'tgan mavzuga xulosa qilib shuni aytishim mumkinki madaniyat, san'at, estetik tarbiya va badiiy ta'lim muammolari ularga yondashish masalalari o'rta asrlargacha va undan keyingi davrlarda yashagan sharqning ma'rifatli kishilarning ham diqqat e'tiborida bo'lib, ular dunyo qarshisida, ijodida oldingi o'rinlarni egallaydi.

O'rta asrlarda mutafakkirlarni san'at haqidagi qarashlarning taxlili yakunlariga asoslanib aytishim mumkinki bu davrlarda o'rta osiy xalqlarining o'ziga xos estetik ideallari, borliq haqidagi fikrlarini ko'rish imkonini beradi va eng asosiysi o'sib kelayotgan avlodni o'qitish va tarbiyalashda yuqoridagilardan ijodiy foydalanishni o'quvchi yoshlarni rang tasvirga o'rgatish qadimiy "sir"larga jalb qilishga, miniatyuraning turli usullarini tasviriyl va amaliyl san'atning turli tarmoqlariga ijodiy qo'llash imkonini beradi.


Tasviriyl san'atni o'qitish metodlarini, shu bilan bir qatorda sharq miniatyurasi qonun va qoidalarini o'rgatish, mening fikrimcha bu nodir san'at turi o'quvchilarga badiiy ta'lim va estetik tarbiya berish imkonin kengaytiradi va hozirgi zamon tasviriyl va amaliyl san'atni o'qitish metodlarini boyitadi.

Bitiruvchi Agamurotova Kumushoy

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoyoqubov Sh. "Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi" Toshkent 2006 yil .
2. Goncharova P.A. "Buxoro zardo'zlik san'ati". Toshkent 1986 yil.
3. Ashrafiy M.M. "Djami v miniatyurax" XVI v.M. 1966 yil.
4. Zaxidov H.Sh. "Samarkandskaya shkola zodix" Toshkent 1965 yil.
5. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Iskustva Uzbekistana s drevneyshix vremen do srediny XIX v. M. 1965 .
6. "Djavaxir As-Sanoi"-Jemchujina remesel. Institut Vostoko-vedeniya im Abu Rayxon Beruniy AN RUz № 3377/1
7. Lakovskaya V Nastionalnaya tradistiya v stankovoy jivopisi Uzbekistana // «Maskan» , 1992 № 3-4
8. "Temur va Ulugbek davri tarixi" O'z R.F.A. A Asqarov taxriri.
9. T. Mahmudov "Bekzox maktabi haqida muloxazalar" T. Guliston № 1, 1996
10. O.Usmonov "Kamoliddin Bekzod va uning naqqoshlik maktabi" T. "Fan" 1977
11. N.Norqulov, I.Nizomiddinov "Miniatyura tarixidan lavxalar" T. 1970.
12. "Miniatyura va literatura Vostova" E. A. Tolyakova, Z. I. Raximova T. 1987.
13. Boburnoma rassomlari. Tuzuvchi va so'z boshi muallifi F.F. d professori Hamid Sulaymon T. "Fan" 1970 y.
14. Persidskie miniatyury XIV-XVII v. v. Vst Statya O.F. Akimushxina i L.L. Ivanova M. «Nauka» 1986.
15. G. Pugachenkova va O. Galerkina «Miniatyury sredniy Azii»№ 1 «Izbitratelnaya iskusstvo» 1979 y.
16. Buyuk siymolar, allomalar T 2 Kamoliddin Bekzod O.Usmonov so'zi T. 1996.

ILOVALAR



Agamurotova Kumushoy ish jarayoni



Agamurotova Kumushoy ish jarayoni




Agamurotova Kumushoy ish jarayoni



Agamurotova Kumushoy ish jarayoni




Miniatyura elementlari (daraxtlar misolida)




Miniatyura elementlari (shaxslar)




Miniatyura elementlari (shaxslar kompozitsiyasi)



Kushlar va kapalaklar tasviri




Miniatyurada ishlatiladigan idishlarning tasvirlari



Miniatyurada ishlatiladigan gul va daraxtlar tasvirlari



Miniatyurada ov manzarasi tasviri



Miniatyura kompozitsiyasi



Lakli miniatyura namunalari




Terida miatyura namunasi



Agamurotova Kumushoyning malakaviy bitiruv ishi



Agamurotova Kumushoyning malakaviy bitiruv ishi



Agamurotova Kumushoyning malakaviy bitiruv ishlari